

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI
JAHON SIYOSATI VATARIX FAKULTETI
JAHON SIYOSATI KAFEDRASI**

Qo‘lyozma huquqida

Abdisalomov Asomiddin Salohiddinovich

**AFG‘ON MUAMMOSINI BARTARAF ETISHDA AQSH
YONDASHUVI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

5310100 – SIYOSATSHUNOSLIK

Ilmiy rahbar: s.f.d. prof. Qosimov A.M.

МУҲДАРИЖА

KIRISH.....	3
1-BOB. ZAMONAVIY SIYOSATSHUNOSLIKDA NIZOLARNI TADQIQ ETISH MASALASI.....	8
1.1. Nizo tushunchasining nazariy tahlili	8
1.2. Nizolarni boshqarishning zamonaviy uslub va vositalari	18
2-BOB. AFG‘ON MUAMMOSINI BARTARAF ETISHDAGI AQSH SIYOSATINING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI	28
2.1. Afg‘on muammosining vujudga kelishi	28
2.2. AQSh tashqi siyosatida Afg‘on vektorining shakllanishi va AfPak strategiyasining muammoni bartaraf etishdagi o‘rni	39
2.3. Xalqaro tinchlikparvar kuchlarining Afg‘oniston hududidan olib chiqib ketilishi masalasi	50
XULOSA.....	59
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	61
ILOVALAR	67

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunda nafaqat mintaqadagi, balki butun dunyodagi xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash muammolari, shu jumladan Afg'on muammosini hal etish masalasi jahon hamjamiyatining diqqat markazida turibdi va mazkur masala dolzarbligicha qolmoqda. Mana 30 yildan oshibdiki, mazkur mamlakat notichliklar girdobida qolgan. Hozirgi kundagi ko'pgina betartiblik holatlari aynan shu mamlakatdan tarqalmoqda. Avval Sobiq Ittifoq, 2001-yil sentabr voqealaridan keyin esa Amerika Qo'shma Shtatlari mazkur mamlakatdagi notinch holatlarni tartibga solish uchun xavfsizlik missiyalarini amalga oshirdilar va oshirib kelmoqdalar. Mazkur muammolarni hal etishda AQSHning amalga oshirayotgan sa'y-harakat va urinishlari o'z samarasini bir qadar ko'rsatmoqda.

Shu bilan bir qatorda, mazkur hududda ko'pgina davlatlarning manfaatlari kesishgan bo'lib, shu vaziyat ham o'zining bir muncha salbiy ta'sirlarini ko'rsatmoqda. Prezidentimizning shu o'rinda "bir narsa aniqki, mintaqa faqatgina barqarorlikni saqlash va geopolitik muvozanat sharoitlarida jahon hamjamiyati uchun munosib hamkor bo'lishi va faol va barqaror rivojlanishi mumkin¹" degan jumalari ayniqsa o'rinlidir.

Bundan tashqari, mavjud muammoni shundayligicha o'z holiga tashlab qo'yib bo'lmaydi. "Har qanday muammo alohida olingan davlatda milliy chegaralar doirasida uzoq vaqt qolishi mumkin emas²." Shu jumladan bu muammo O'zbekistonning xavfsizligiga va barqaror rivojlanishiga o'zining ko'pgina salbiy ta'sirlarini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, AQSH siyosatida butun dunyoga xavf solib kelayotgan global muammolardan biri bo'lgan terrorizmni oldini olish va uni yo'q qilish muammosi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Bunga uning hududida yuz bergan "11-sentabr voqealari" va kuni kecha sodir bo'lgan "Boston voqealari" kabi terroristik aktlar ham kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Shundan kelib chiqib bugungi

¹ Каримов И.А. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. –М.: Дрофа, 1997. – С.9.

² Там же – С.24.

kunda AQSHning mazkur muammolarni hal qilishdagi, tinchlik va barqarorlikni saqlashdagi oʻrni va rolini hamda mintaqadagi siyosiy jarayonlarga taʼsirini oʻrganish dolzarb hisoblanadi. AQSH hukumati tomonidan Afgʻonistondan 2014-yilgacha oʻz qoʻshinlari va tinchlikparvar qoʻshinlarni olib chiqib ketish masalasi ham bugungi kunning ancha murakkab vazifalaridandir. Bunda ikki savol koʻzga yaqqol tashlanadi: birinchisi, “Afgʻonistonda mavjud shuncha sonli qoʻshin va jihozlarni bunday qisqa vaqt ichida qanday olib chiqib ketish?” boʻlsa, ikkinchisi, “tinchlikparvar qoʻshinlar mamlakatdan chiqib ketgandan keyingi mamlakatdagi umumiy sharoit qay ahvolda boʻladi?” degan savollardir.

Hozirgi vaqtda Afgʻoniston tinch va barqaror jamiyat qurish yoʻlidan bormoqda. Prezidentimiz I.Karimov taʼkidlaganlaridek – «bu millionlab afgʻonlarni tinch mehnat bilan band qilish, yangi, nisbatan qisqaroq kommunikatsiyalar va savdo, iqtisodiy aloqalarni shakllantirish, dunyoning bu eng keskin mintaqasidagi joʻgʻrofiy-siyosiy holatlarni tubdan oʻzgartirish imkonini beradi».

Mavzuning oʻrganilganlik darajasi. Bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda, avvalo, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning davlatimiz taraqqiyotining asosiy yoʻnalishlari, Oʻzbekiston Respublikasi tashqi siyosatining tamoyillari, mintaqaviy xavfsizlik masalalari keng va har tomonlama yoritib berilgan asarlariga va xalqaro tashkilotlar doirasida Oʻzbekiston pozitsiyasi yuzasidan soʻzlagan nutqlariga tayanildi¹.

Oʻrganilgan adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatmoqdaki, AQSHning afgʻon muammosi boʻyicha siyosati bir qator mutaxassislar tomonidan tadqiq qilingan.

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. –Т.:Ўзбекистон, 1997, –326 б.; Каримов И.А. Ўзбекистон демократик тараққиётнинг янги босқичида. –Т.:Ўзбекистон, 2005. –144 б.; Каримов И.А. Жамиятимизни эркинлиштириш, ислохатларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. –Т.15. –Т.:Ўзбекистон, 2005. –320 б.; Каримов И.А. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. –Т.11 –Т.:Ўзбекистон, 2003. –320 б.; Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омили. Президент Ислом Каримовнинг ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси.// Халқ сўзи, 2010 йил 8 декабрь; Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. –80.б.; Мамлакатимизда демократик ислохатларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Президент Ислом Каримовнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг кўшма мажлисидаги маърузаси. // Халқ сўзи, 2010 йил 13 ноябрь;

Umuman mavzuning o'rganilganlik darajasi borasida uni shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin: respublikamizda faoliyat yuritayotgan va chet ellik olimlar, tadqiqotchilar va mutaxassislar.

O'zbekistonda AQSHning Afg'oniston Islom Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarning ayrim jihatlari hamda muammolari nazariy jihatdan yoritilgan mutaxassislar qatoriga Sh.Akmalov, R.Alimov, F.Tolipov, N.Tulyaganova, A.Xaydarov, X. Kazakxanov, S. Ibragimova va boshqalarni misol tariqasida keltirish mumkin¹.

Xorijiy tadqiqotchilar A. Knyazev, V.Belokreniskiy, Yu.Gankovskiy, V.Korgun, R.Mukimdjanova, V.Moskalenko, V.Plastun² kabi sharqshunos olimlarning ilmiy ishlari va maqolalari Afg'onistonning tarixi, ichki nizoli jarayonlari va xalqaro munosabatlaridagi muammolarining ayrim jihatlari e'tibor qaratilgan.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Bitiruv malakaviy ishining manbalarida, avvalo, metodogik asos hisoblangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, ma'ruza va nutqlari, shuningdek mahalliy, MDH mintaqasida faoliyat yuritayotgan olimlar va xorijlik mutaxassis-olimlarining asarlari, chop ettirgan risola va ilmiy maqolalari tashqil etadi. Internet manbalarini shular jumlasidandir.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. AQShning Afg'on muammosini hal etishdagi o'rni.

¹ Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. –Т.: Ўзбекистон, 2005. –456 с.; Алимов Р. и Арифханов Ш. Центральная Азия: формирование новой архитектуры безопасности. –Т.:Шарк, 2002. –314 с.; Акмалов Ш. Проблема Афганского урегулирования в современных пакистано-иранских отношениях. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. –Т., 2002. –126 с.; Толипов Ф. Геополитический пат в Афганистане. // Центральная Азия и Кавказ. –2000. –№6. –С.27-36; Толипов Ф. Война в Афганистане. // Полис. –1998. –№6. –С.31-37.; Туляганова Н.У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. –Т.:Фан, 2004. –272 с.; Хайдаров А. Центральная Азия во внешней политике Исламской Республики Иран. –Т.:ТашГИВ, 1998. –227 с.; Ибрагимова С. Международный терроризм как фактор угрозы безопасности Республики Узбекистан. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. –Т., 2005. –118 с.; Казакханов Х. Международно-правовые аспекты борьбы с финансированием терроризма. Диссертация на соискание ученой степени кандидата политических наук. –Т., 2008. –134 с.

² Князев А. Афганский конфликт и радикальный ислам в Центральной Азии. –Бишкек.:Илим, 2001. –166 с.; Князев А. История афганской войны 1990-х гг. и превращение Афганистана в источник угроз для Центральной Азии. –Бишкек.:Илим, 2002. –136 с.; Пластун В. Афганистан: симптом или синдром. –М.. 2001. –264 с.; // <http://www.iimes.ru/rus/stat/2006/> - 02.08.2006; Задонский С. Стратегические аспекты визита президента ИРИ М. Хотами в Пакистан. // <http://www.iimes.ru/rus/stat/2003/> - 05.05.2003; Коргун В. США в зоне "проблемного треугольника". // <http://www.iimes.ru/rus/stat/2005/> - 02.07.2005.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. AQSHning Afgʻon muammosini hal etishdagi geosiyosiy qarashlari, tashqi siyosiy kursi shakllanishining oʻziga xos xususiyatlari va ustuvor yoʻnalishlari boʻlib hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Tadqiqotning ilmiy maqsadi AQSHning bugungi kundagi xalqaro munosabatlarini, ayniqsa, Afgʻoniston hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan xavfsizlik borasidagi hamkorliklarini oʻrganish va tahlil qilishdan iborat.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- Nizolarni oʻrganishning nazar;
- Nizolarni boshqarishning zamonaviy uslublarini yoritib berish;
- Afgʻon muammosi va uning kelib chiqish sabablari va oʻziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;
- Afgʻon muammosini hal etish borasida nazariy yondashuvlarni aniqlash;
- Afgʻoniston yoʻnalishi- AQSh tashqi siyosatining muhim yoʻnalishi sifatida tahlil qilish;
- Markaziy Osiyoda barqarorlikni taʼminlashda AQShning oʻrni va ahamiyatini tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. AQShning Afgʻoniston muammosini hal etishdagi siyosatining zamonaviy tendensiyalari tahlil etilganligi ishning ilmiy yangiligini belgilab beradi. Shuningdek, bitiruv malakaviy ishda quyidagilarda aniqlanadi:

- Afgʻoniston muammosining kelib chiqish sabablari tizimli tahlil etilgan;
- Afgʻoniston muammosini hal etish borasidagi zamonaviy nazariy yondoshuvlar oʻrganilgan;
- AQShning Afgʻoniston siyosatining bugungi kundagi holati ochib berilgan;
- AQShning Markaziy Osiyoda barqarorlikni taʼminlashdagi oʻrniga baho berilgan.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishda tahlil etilgan voqealar va faktlar, xulosalar va boshqa bir qator masalalarga

oid materiallar “Siyosatshunoslik”, ”Xalqaro munosabatlar”, “Tarix” va boshqa gumanitar yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar uchun ilmiy-amaliy qo‘llanma sifatida qo‘llanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, beshta paragrafni o‘z ichiga olgan ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat.

1-BOB. ZAMONAVIY SIYOSATSHUNOSLIKDA NIZOLARNI TADQIQ ETISH MASALASI

1.1 Nizo tushunchasining nazariy tahlili

Nizo tushunchasining nazariy tahlili Hozirgi zamon ilm-fani bashariyat tarixining qaysi bir davriga murojaat qilmasin, ularning barchasida nizolarning mavjud ekanligiga duch keladi. Aniqroq qilib aytganda, nizo jamiyat rivojining doimiy hamrohi bo'lganligiga amin bo'lamiz. Nizolarning jamiyat hayotidagi o'rni qadimdan e'tiborga molik bo'lib kelgan. Ha, insoniyat nizolar bilan "bilag'on odam"lar yashagan davrdan buyon hamnafasdir. Shuning uchun bo'lsa kerak ilmiy doiralarga nizo haqidagi ilk qarashlar afsonalar orqali kirib kelgan.

Aynan afsona va matallarda, o'tgan asrlarda ijod qilgan faylasuflar, tarixchilar va yozuvchilarning fikr-mulohazalari-yu ilmiy qarashlarilagi ko'plab, ba'zan esa o'ta mulohazali fikrlar jamiyatdagi nizolarning kelib chiqish sabablari va ularni bartaraf etish yo'llari xususida bo'lgan.

“Nizo” tushunchasi ta'rifi asosida yetarlicha Y.Shepanskiy taklif qilgan tasnif bor, ya'ni u nizoni “aniq predmet yoki vaziyat sababli vujudga keluvchi maqsad va imkoniyatning qarama-qarshi yo'naltirishni chaqiruvchi to'qnashuvi¹” deb izohlaydi.

Qadimda oqsoqollar urug'-qabila boshliqlari kengashi nizoni hal qiluvchi kuch sifatida xizmat qilgan. Biroq insoniyat tarixining keyingi bosqichlarida ilk davlatlarning vujudga kelishi, odamlar o'rtasida tabaqalanishni takomillashishi va uning orqasidan har xil siyosiy tizimlarning yuzaga kelishi har doim ham jamiyatda barqarorlikni ta'min etavermagani tabiiy hol. Bunday o'zgarishlar odamlar o'rtasida muayyan darajada ijtimoiy haqsizlikni kuchaytirgan. Oqibatda nizolarga zamin hozirlanib, tomonlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar kengayib boravergan. Natijada jamiyatla nizolar orqasidan uning ta'siridagi muammolar ko'payib borgan. Shuning uchun o'tgan ko'plab yillar davomida kishilik jamiyati

¹ Щепаньский Я. Элементарные понятия социологии. – М., 1969. – С. 200.

tinch-totuv kelajakka umid bilan qaragan, doimo urush va qarama-qarshiliksiz jamiyatni ko‘rishga intilib yashagan.

Ijtimoiy nizolarning tabiati to‘g‘risidagi ilk qarashlar va tushunchalar orasida qadimgi yunon faylasuflari alohida o‘rin egatlayli. Mashhur antik faylasuf Geraklit urushlar va ijtimoiy nizolar to‘grisidagi fikr va muloxazalarini tabiiy borliq haqidagi umumiy qarashlar tizimiga bog‘lashga harakat qilgan. Uningcha xamma narsa o‘zaro bog‘liq va bir-biriga aylanib guradi. Shu jumladan, insoniy munosabat normalari ham.

Abu Nasr Forobiy (873-950 y.) birinchi bo‘lib jamiyamning kelib chiqishi va davlatni qanday boshqarish kerakligi haqidagi ilmiy-nazariy bilimlar tizimini o‘rganib chiqdi. Bular asosan quyidagilardir:

- Ijtimoiy hast haqidagi fan va uning vazifasi;
- Inson jamoasining vujudga kelishi tarkibi va turlari;
- Shahar-davlat jamoasining fazilati, davlanning faoliyati vazifasi va uni boshqarish shakllari;
- Insonning jamiyatdagi o‘rni va vazifasi, aqliy, axloqqi kamoloti masalalari;
- Davlat jamoasining maqsad va vazifalari, insonni baxt-saodatga erishtirishning usullari va yo‘l-yo‘riqlari.

Forobiyning fikricha, jamiyatdagi nizolarning birdan bir sababi - odamlar tafakkurida ijtimoiy hayot, shahar-davlat, axloq va fikr ilmlarinish to‘la shakllanmaganligidadir. O‘z navbagila yuzaga kelmoqchi bo‘ladigan nizolarning oldini olishda hamda odamlarning ushbu ilmlar bo‘yicha olgan yuwori bilimlari ijobiy natijalar berishi haqida gapirib, nazariy bilimlarning egallanishi amaliyotda muhim ahamiyatga ega ekanligini uqtiradi. Forobiyning jamiyat haqidagi mulohazalarida “zo‘ravonlik va majburlash ta’limoti”¹ ko‘rinadi. Chunki har qanday davlat va jamiyatda "zo‘ravonlik va majburlash ta’limoti"ning amaliyotda aks etishi, o‘sha davlat va jamiyatdagi nizolar shakllanishining asosidir. Forobiy

¹ Jumayev R.Z. Konfliktologiya asoslari. – T.: Akademiya, 2000. – B. 7.

"zoʻravonlik va majburlash taʼlimoti"ga qarama-qarshi oʻlarok "tabiiy ehtiyoj nazariyasi"ni¹ ilgari suradi. Zero odamlarning birgalikda totuv yashashi, jamoalarga uyushishi, bir-biriga yordamlashib kun kechirishi kabilar tabiat va jamiyatdagi "tabiiy ehtiyoj" mavjudligining tabiiy belgilaridir.

Sharqdagi ilk Uygonish davri vakillari qarashlaridan farqli ravishda Gʻarb dunyosi oʻrta asrlar - Yevropa Uygonish davri namoyandalari ijtimoiy nizolarga murakkab va qarama-qarshi baho berdilar. Negaki bu davrda jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar va qurolli toʻqnashuvlarni mashhur gumanistlar T. Mor, E. Rogtsrdam. F. Rabls, F. Bekonlar keskin qoralab chiqqan edilar. Erazm Rogtsrdam urush - "urushni bilmaganlar uchun shirin" deydi. U boshlanajak nizoning misoli zanjir reaksiyasi yangligʻ, oʻz domiga aholining yangi qatlamlari va davlatlarni tortib ketishi borasida soʻz yuritib, qarama-qarshi turgan tomonlar garchi umumiy jihatdan gʻoyaviy birga boʻlsalar ham, oʻzaro sulhga kelishishlari mushkulligiga eʼtibor qaratdi. Ingdiz faylasufi Frensis Bekonning nizolar tabiati toʻgrisidagi fikrlari ham eʼtiborga loyiqdir. Nizo tarixida u birinchi boʻlib davlatning ichki ijtimoiy nizolari sabablarini aniq nazariy tahlil qilib chiqib, ijtimoiy tartibsizliklarning moddiy, hissiy va ruhiy shart-sharoitlarini sinchiklab oʻrgangan hamda ularni bartaraf etish yoʻllarini belgilab bergan. F. Bekon qarashlarida davlat va jamiyatdagi ijtimoiy tartibsizliklarning yuzaga kelishiga sabab sifatida asosan moddiy sabablar tushunchasi ustuvorligi xarakterlidir. Masalan, uningcha bunday ustuvor jihatlardan biri davlatdagi xalq moddiy ahvolining tangligida namoyon boʻladi. "Davlatda qancha nochor boʻlsa, - deydi u - shuncha tayyor qoʻzgonchidir. Mabodo nochorlar qatoriga oddiy xalqning mobillashuvi sabab boʻlsa, xavf ortib boradi va aniqroq namoyon boʻladi.

Guruhlar oʻrtasidagi nizolarning quyidagi turlari mavjud:

- Iqtisodiy nizolar;
- Siyosiy nizolar;
- Milliy nizolar.²

¹ Oʻsha kitob – B.8.

² Анцупов А. Я., Шипилов А. И. Конфликтология. – Питер, 2007. – С.115.

Shu bilan birga tiklashlarning davlatdagi ijtimoiy qatlamlar va vakillik organi fikrini inobatga olmasdan qat'iy ravishda sub'ektiv mulohazasiga ko'ra ish tutishi nomaqbulligini uqtiradi. Agarda shunday holat yuz bersa, "xalq bunday boshboshdoqlikni qiyin hazm qiladi va o'zlaricha mustaqil ravishda qandaydir yangi boshqaruv tizimini joriy etishga va uni o'rnatishga harakat qiladilar. Qachonki "o'rtaliq" ziyolilardan xalqqa yo'nalish berib qo'yilsa xalqning ko'tarilishi tabiiy". Shuningdek F. Bekon boshqaruv tizimilagi hissiy xatolar bilan birga, ijtimoiy tartibsizliklarni keltirib chiqaruvchi bir qagor ruhiy omillarni ham aniq va ravshan ko'rsatib bergan. Jumladan. "davlat rahbarining tilidan chiqqan keskin va achchiq so'z", "jamiyat hayotidagi ko'rolmaslik illati", "hukumat sha'nini bulg'aydigan tez-tez ko'tariladigan va oson tarqaladigan mish-mishlar, yolg'on-bo'hton tashviqotlar" shular jumlasilidir. Ijtimoiy mojarolarning oldini oladigan yo'llardan biri sifatida F.Bekon hissiy manevr san'atini ko'rsatadi. "Odamlarni bir umiddan ikkinchisiga yetaklash norozilikning oldini oladigan eng yaxshi vosita. Insonlarning ehtiyojlarini qondira olmasalarda, ularni kelajakka faqat umidlar bilan ishontira oladigan, har qanday adovatni o'z vaqtida orzu va uning umid uchkunlari bilan yumshata oladigan hukumat oqildir. Bu narsa aytarli mushkul emas, zero shaxslar va ba'zan butun boshli partiyalar o'z istiqbollariiga ishonmasalarda, baribir orzu va umidlari to'g'risida ochiq gapirib, o'zlarini ana shular bilan ovutadilar".

Nizo – bu ijtimoiy hayotning barcha sohalaridagi nizolarning sabablarini, negizini, ularning dinamikasi va shaklini o'rganuvchi hamda ularni hal etish vositalari va nizolarning boshqarish haqidagi fandır.¹

Nizoning predmeti – bu nizoning asosida yotuvchi qarama-qarshilikdir.²

Qay darajadagilgan qat'i nazar nizoning tushuna olish, F.Bekon ta'rifi bo'yicha, - norozilar orasida ularni birlashtira oladigan bosh bo'lmasligiga erishish eng "go'zal fikrdir". Ikkinchi tomonlan esa, xalq qo'zgonlari va tartibsizliklarini bosa oladigan bitta, yaxshirog'i bir nechta bunday shaxslarning bo'lishlari vaqti

¹ Трушников Д. Ю., Трушникова В. И. История Конфликтологии. – Тюмень: ТюмГНГУ, 2009. – С.7.

² Давлетчина С.Б. Конфликтология. – Улан-Удэ: ВСГТУ, 2005. – С.89.

kelib olomon xalqqa aylanganda ular qanday asosiy sifatga ega bo‘lajagini dastlabki ehtimollarini beradi. Shuning uchun "... harbiy boshliklar va xalq fidoyilari ishonarli va obro‘li kishilar bo‘lishi, ajralishlar taraflori va shuhratparast bo‘lmasliklari, shuningdek, davlatdagi asosiy amaldorlar bilan har qanday lahzada til topisha oladigan shaxs bo‘lishi zarur. Aks holda lahzalik malham og‘ir kasallikdan ham xavfliroq bo‘lishi mumkin",- deb yozali Bekon.

“Nizoda hech qanday farqli jihat yo‘q, qarama-qarshilikning sinonimi emas, qarama-qarshilik va cheklanishni yo‘qotish usuli, og‘ir tizimlarning o‘zaro harakatlanish uslubi”¹.

Nizo – har doim qiyin va ko‘p rejali sotsial fenomen hisoblangan. Unda juda ko‘p taraflar ishtirok etadi: shaxslar, ijtimoiy guruhlar, milli-etnik birliklar, har turli maqsad va qiziqishlar birashtirgan davlat va davlatlar guruhi. Nizolar har xil sabab vajlar tufayli vujudga keladi: psixologik, iqtisodiy, siyosiy, diniy va boshqalar.

Ingliz iqtisodchisi, rohib Tomas Maltusning “Aholi to‘g‘risidagi qonun tajribalari” asarida mamlakat aholisi o‘rtasidagi o‘sib borayotgan ishsizlik muammosiga yangicha ta‘rif berilgan. Tabiatning “abadiy” biologik xususiyatlarini jamiyatda xalqning qashshoqlashuviga bosh sabab qilib ko‘rsatgan Maltus, o‘ziga xos “tabiiy qonuniyat” yaratdi. Unga ko‘ra davlatda aholi sonining ortishi geometrik progressiya, ularning yashash va harakatlanish vositalari esa – arifmetik progressiyaga binoan o‘sib boradi. Shu bilan birga ishchilar ahvolining ayanchliligiga, sanoatning o‘zgarishi va dehqonlarning yersiz qoldirish siyosati emas, balki ishchilar sinfining “yengiltaklik odati” bo‘yicha “o‘ylovsiz” ko‘payishini eng asosiy sabab qilib ko‘rsatadi. Tabiiyki, jamiyat rivojlanishiga nisbatan bunday baho odamlarning yashash uchun kurashishi nafaat tabiiy hol, balki uning zaruriyat ekanligini ham yana bir bor namoyon qiladi. Qolaversa, mazkur nazariya odamlarning “o‘ylovsiz” ko‘payishi natijasida turli xil konfliktlarning yuzaga chiqishini jamiyat rivojlanishidagi muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tadi.

¹ Дружинин В. В., Конторов Д. С., Конторов М. Д. Введение в теорию конфликта. – М., 1989. – С. 8.

Ma'lumki yashash uchun kurash muammosi ingliz biologiyasi Charlez Darvin ta'limotida ham markaziy o'rinni egallaydi. Uning asosiy nazariy g'oyalari biologik evolyutsiya to'g'risidagi "turlarning tabiiy tanlov natijasida kelib chiqishi yoki yashash uchun kurashda toza naslli turlarni saqlab qolish" ilmiy asarida bayon etilgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida AQSHda ijod qilgan mashhur olim Uilyam Samner yashash uchun kurashda progressning muqarra omili sifatida insoniyatning eng kuchsiz va ongsiz qatlami halok bo'lishi shart degan aqidani olg'a suradi. G'oliblar-chi? G'oliblar esa jamiyatdagi ishbilarmon tadbirkorlar, ish odamlari va bankirlar va shu kabilar – barcha "umumbashariy qadriyatlar ijodkorlari va umuman eng yaxshi insonlar sanalar edi".

Konfliktologiya borasidagi konservativizmga asoslangan fikrlardan farqli ravishda U.Samner qarashlari fanning ilmiy irmoqlariga kutilmagan "toshqin" singari qo'shildi. Uning qarashlarida pozitivistik ohang hukmron edi. Tarixiy-etnografik materiallarning qatlamiga tayangan U.Samner, ijtimoiy munosabatlar me'yorini o'rganishda tizimli uslubiy yondashuvga asos solib, guruhlar ichidagi va guruhlararo munosabatlarni shu tarzda o'rganishni boshlab berdi. Konfliktlarni tadqiq qilishda guruhlararo konfliktlarga alohida e'tibor qaratish U.Samner ta'limotining asosiy bo'g'inlaridan biri bo'ldi.

Nemis sotsiologi Georg Zimmel "konflikt sotsiologiyasi" terminini ilmiy siyosiy lug'atlar majmuasiga birinchi kiritgan olim sifatida tan olingan¹. Uning asrimiz boshlarida nashr etilgan asarlaridan biri ham shunday nomlanadi. Olimning fikricha, konfliktlar jamiyatda ijtimoiy integratsiyani muayyan darajada muvofiqlashtiradi, ijtimoiy bilimlarning aniq xususiyatlarini aniqlab, ularni tashkil etish prinsplari va meyorlarini mustahkamlaydi.

Bugungi kunda nizoga bag'ishlangan kitoblarda nizolarga turlicha qarash va tushunchalar berilgan. Shulardan biri, G'arbda keng tarqalgan nizo tushunchasi mashhur Amerikalik nazariyotchi L. Kozer tomonidan ishlab chiqilgan. Unda u "ahamiyatli narsalar uchun kurash va huquqiy holat, hokimiyat va resurslar

¹ Жумаев Р., Убайдуллаев У. Конфликтология асослари. –Т.: Академия, 2000. –Б.18.

aniqlashtirish uchun da'vo qilish va dushmani neytrallashtirish, unga zarar yetkazish yoki raqibini yo'qotishni maqsad qilish"¹ini tushuntiradi.

Bu ta'rif sotsial qarash tomonidan ochib beriladi, negaki uning asosiy mazmunida, muallifning fikricha, ahamiyatli va qimmatli narsalar va turli ijtimoiy guruhlarining qiziqishlarining to'qnashuvi birinchi o'rinda turadi.

Nizoni ta'riflab keluvchi ko'pgina vatanparvarlik adabiyotlarida xuddi shunday ijtimoiy xarakter mavjud. Ularning asosiy jihati shundaki, muallif ijtimoiy birlik va shaxslar o'rtasidagi kelishmovchiliklar shakllari turli ko'rinishlarini ijtimoiy nizolarning zaruriy belgilari sifatida aniq qiziqish va maqsadga erishishga yo'naltirish kabi belgilaydi.

A.G.Zdrovomislov: shundoq ham, nizo – bu jamiyatdagi kishilarning o'zaro harakatlarining muhim tomonidir. Bu ijtimoiy faoliyatning potensial yoki aktual subektlari o'rtasidagi munosablarning shakli, qarama-qarshi qadriyatlar va normalar, qiziqishlar va talablarning shart qilib qo'yilgan omillaridir².

Zdrovomislov nizoni ijtimoiy jamiyatdagi kishilar o'rtasidagi o'zaro harakat deb tushuntiradi. Lekin boshqa tarafdin bu ancha sayoz yondashuv hisoblanadi. Chunki nizo faqatgina ijtimoiy jamiyatdagi mallum doiradagi kishilar o'rtasidagina yuzaga kelib qolmaydi, aksincha unga hajmiy yondashuv buning aksini ham ko'rsatadi.

Y.G.Zaprudskiy: ijtimoiy nizo – bu ijtimoiy obyektlarning rivoji tendensiyasi va maqsadi, manfaatlarining rivojining obektiv qarshi kurashining ochiq yoki maxfiy holati, ijtimoiy kuchlarning to'g'ridan-to'g'ri mavjud ijtimoiy tartiblar tufayli tarixiy harakatlarning maxsus shaklini yangi ijtimoiy birlikka aylantirish harakatidir³.

Tomas Gobbs ijtimoiy kelishuv nazariyasining shakllaridan birini batafsil qayta ishlab chiqdi. Birinchi navbatda, tabiiy holatda, jamiyatning har bir a'zosining tabiiy huquqi, har bir individ cheklanmagan va har bir inson tabiiy

¹ Coser L. A. The Functions of Social Conflict. – London: Free, 1956. –P. 8.

² Здравомыслов А. Г. Социология конфликта. – М.: Аспект, 1996. –С. 96.

³ Запрудский Ю.Г. Социальный конфликт. – Ростов н/Д:Феникс, 1992. – С. 54.

huquqiga egalik qiladi. “Tabiiy holat” natijada “xaos”ga, ya’ni “hammaning hammaga qarshi urushi”ga aylanadi.

Tomas Gobbs ijtimoiy nizolarning 3 ta asosiy sababini keltiradi:

- Qo’rquv (inson nimaga ega bo’lsa, o’shani yo’qotishdan qo’rqadi);
- Raqobat (inson o’zida nima bo’lsa, shuni saqlashni xohlaydi);
- Shon-shuxratga intilish (inson o’zida nima bo’lsa, uni ko’paytirishga

intiladi).

A.V.Dmitriyev: ijtimoiy konflikt odatda tomonlarning hudud yoki resurslar egallash uchun oppozitsion shaxslarga yoki guruhlariga ularning madaniyati yoki shaxsiyati kabi jihatlarga xavf tug’dirish kurashidirki, bu kurash hujum qilish yoki mudofaa qilish shakliga ega bo’ladi¹.

Barcha afzalliklarga qaramay, ijtimoiy nizoning turli ko’rinishdagi atributlarini ifodalasada, bizning nuqtai nazarimizcha ba’zi kamchiliklarga ega. Ular shaxsiy ichki nizoni o’z ichiga qamramaydi va unga joy qoldirmaydi. Gap faqat “shaxslar o’rtasidagi va yuqoriroq tomonlarning kurashlari”dan boshlanib, nizoning tomonlari haqida ketayapti.

Lekin kurash alohida shaxslar o’rtasida ham mavjudki, shaxsiy ichki nizo sifatida ko’riluvchi shaxsiy ichki tuzilmaviy elementlari o’rtasidagi o’zaro kurashdir. Mazkur nizo – ijtimoiy guruh yoki butun xalq darajasidagi o’zaro kurash emas, balki shaxsiy darajadi.

Mazkur vaziyat, ehtimol, ba’zi mualliflar tomidan shaxsiy nizo ijtimoiy nizoga hech qanday a’loqador emas, u faqat psixologik nizoni o’zida aks ettiradi, “ijtimoiy” tushuncha hajmi va bevosita ijtimoiy nizoga tenglasha olmaydi deb qaralsada, boshqa mualliflar bu fikrga qo’shilmaydi, va aksincha teskari munosabatni maqullashadi. Shulardir biri G.I.Kozirevdir.

Shaxsiyat – yozadi u – barqaror ijtimoiy-ma’noli chegaraviy tizim, individning biologik va madaniy o’ziga xosligi bilan bevosita o’zaro munosabatga ega. Ichki shaxsiy nizo ikki yoki undan ortiq taraflarni o’zaro harakatini xarakterlaydi. Bitta shaxsda bir vaqtning o’zida bir nechta bir-birini inkor qiluvchi

¹ Дмитриев А.В. Конфликтология. – М.: Гардарика, 2000. –С. 54.

talablar, maqsadlar, manfaatlar mavjud bo'lishi mumkin. Ularning barchasi ijtimoiy bo'g'langan, hattoki agar sof biologik xarakterga ega bo'lsa ham, shunda ham ularning ta'minlanishi ijtimoiy munosabatlarning butun tizimi bilan a'loqadordir¹.

L.Gumnlovich fikricha, nizolar yagona va zaruriy ijtimoiy jarayon emas. Biroq, keng ijtimoiy jamoalar hamda davlatlarni vujudga keltiradigan ijtimoiy birlashuvlar ahamiyatga molik jarayondir. Chunki bu yerda nizoning asosiy hal qiluvchi rolni o'ynashining sababi bitta, ya'ni jamiyatda ijtimoiy guruhlar aynan nizo natijasidagina birlashadilar. Jamiyatda yangi qoidalar birligining shakllanishi alohida-alohida guruhlar kurashi natijasi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

L. Gumnlovichning jamiyadagi ijtimoiy nizolar tabiatiga nisbagan munosabatlarini uch asosiy tezisga bo'lish mumkin:

1) nizolar tarixiy jarayon negizi, ularning hammasi turli xarakterga ega bo'lsalarda, taraqqiyot omili hisoblanadi;

2) jamiyatning hukmronlar va bo'ysunuvchilarga bo'linishi, shuningdek, ular o'rtasidagi munosabatlarning nouyg'unligidan kelib chiqadigan nizolar ham abadiy hodisadir;

3) nizolar jamiyatning birlashuviga yordam beradi. Keng birlashmalarning shakllanishini ta'minlaydi².

R. Larendorfning nizo muammolariga nisbatan bildirgan qarashlari antifunksional yo'nalishda ekanligini ta'kildagan holda, birdaniga uni radikalizm oqimiga kiritib qo'yish mumkin emas. Tadqiqotchi bejiz o'zini zamonaviy liberal desb atamagan va bu xususiyat uning jamiyatda sinfiy mojarolarning muqarrarligi haqidagi fikrlarida, shuningdek, hatto, ochiq fuqarolar urushini asoslashga uringan K.Marksni qattiq tanqid qilganligida aniq-ravshan ko'rinib turibdi. Amerikalik sotsiolog va iqtisodchi, "konfliktning umumiy nazariyasi" muallifi Kennet Oulding, mavjud muammoning to'liq ilmiy nazariyasini tirik va jonsiz tabiat, shaxsiy va umumiy past doirasi ko'rinishlarida tasvirlab berishga intildi. "Nizo"

¹ Козырев Г. И. Введение в конфликтологию. – М.: Владос, 1999. – С. 24.

² Жумаев Р., Убайдуллаев У. Конфликтология асослари. –Т.: Академия, 2000. –Б.17.

atamasi uning tadqiqotlarida jismoniy, biologik va ijtimoiy xususiyatlardan kelib chiqib keng tahlil qilinadi. K.Boulding dengizdagi quruqlik bilan yoki yerdagi bir turning boshqa shakl bilan tunganmas urushi"ni ko'rsatar ekan, jonsiz tabiatning ham jiddiy mojarolardan xoli emasligini uqtiradi. Oulding o'zining "Konflikt va himoya. Umumiy Nazariya" (1963) nomli asarida "hamma nizolarning umumiy unsurlar va rivojlanishning umumiy parametrlarga ega, - ekanligini e'tirof etadi. Ana shu umumlashgan jihatlarni o'rganish esa nizoning favqulotda sabablarining o'ziga xos tomonlarini ilg'ab olishga yordam beradi. Ushbu kitobda "konfliktningumumiy nazariyasi"dagi uslubiy asosini ko'rsatgani kabi, huquqiy izohlash imkoniyatlarini ham beradi. Qarama-qarshiliksiz yashash istagi - yaxshi g'oya. Biroq inson - ijtimoiy-hissiy mavjudot. Shuninguchun ham insoniyat tobora rivojlangan muhitda yashash uchun intiladi. Rivojlanish esa qarama-qarshiliksiz bo'lmaydi. Qarama-qarshilik tomonlar o'rtasida konfliktlarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Ijtimoiy konfliktlarga nisbatan T.Parsons tutgan yondashuvni "insoniy munosabatlar" (Public relations) maktabi vakillari ham o'z tadqiqotlarida talqin etdilar. Ularning fikricha, sanoati rivojlanib borayotgan davlatlarning xalqaro munosabatlarda o'zini tutishi va olib borayotgan siyosati ijtimoiy konsensusga asoslanishi kerak. Shundagina ular o'zining rivojlanish darajalarini bir meyorda saqlab turishi mumkin¹.

XX asrning 70- yillariga kelib jamiyatdagi inqirozli holatlar - konfliktlarni ijobiy ta'risflash o'rganish yanada kengaydi. Ayniqsa, jamiyatning nizolarsiz rivojlanish g'oyasini "muqobil" sotsiologiyani atoqli vakili, amerikalik sotsiolog Alvin Gouldner (1920-1970) qattiq tanqid qildi. Uning fikricha, sotsiologiyaning asosiy vazifasi jamiyatning nizoli holati va jamiyat rivojlanishiga to'siq bo'ladigan inqirozli vaziyatlar sabablari va ularni bartaraf etish yo'llarini aniqlashdan iboratdir. G'arb jamiyatining inqirozini A.Gouldner insonning tobora yakkalashib ketishi, dunyoga nisbatan odamlarning maqsadli qarashlarining yo'qolishi, bilim

¹Жумаев Р., Убайдуллаев У. Конфликтология асослари. –Т.: Академия, 2000. –Б.53.

va hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatli munosabagarning rivojlanishiga bog'liq deb baholaydi.

Nizoni qator obyektiv va subyektiv omillarning og'ir o'zaro harakati deb hisoblab, nizoning dastlabki sababi, qaysiki nizoni vujudga keltiruvchi potensial imkoniyatni hosil qiluvchi obyektiv nuqtai-nazarlarni tan olish zarur.¹ Mazkur metodologik holat nizoli vaziyatning bo'linish va nizo xulq-atvori asosida o'z aksini topadi (yoki nizoning obyektiv asoslarida), ya'ni nizolashuvchi tomonlarning o'zaro ta'sir usullarida². Shuning uchun bir xil holatlarda turli kishilarni mojaroga qo'shilishga undaydi yoki ruhlantiradi³.

1.2. Nizolarni boshqarishning zamonaviy uslub va vositalari

Ilk uyg'onish davri namoyondalarining davlat va jamiyatdagi konfliktlar to'g'risidagi muhobasalaridan xulosa qilib aytish mumkinki, odamlardagi sog'lom aql va purma'no tafakkurning oshib borishi konfliktlar oldini olishdagi boshlang'ich vosita ekan⁴.

Nizoli vaziyatlarni boshqarishning bir kator samarali usullari mavjud. Ularni quyidagi ikki yirik guruhga bulish mumkin:

1. Tarkibiy-tashkily usullar:

- Amaliy harakatga bo'lgan talabni tushuntirish;
- Muvofiqlashtirish va integratsiyalash;
- Umumtashkily kompleks maqsadlar;
- Muvofiqlashning tarkibiy tizimini takomillashtirish.

2. Strategik usullar:

- Uzoqlashish;
- Silliqlashish;

¹ Ерина С. И. О роли субъекта в возникновении и развитии конфликта. Мышление и общение: активное взаимодействие с миром. – Ярославль, 1988. – С. 120.

² Донцов А. И, Полозова Т. А Проблемы объективных детерминант межличностного конфликта в группе. М., 1977. – С. 23.

³ Гришина Н. В. О природе социально-производственных конфликтов. Социально-психологические проблемы руководства и управления коллективами. – М., 1974. – С. 69.

⁴ Жумаев Р., Убайдуллаев У. Конфликтология асослари. –Т.: Академия, 2000. –Б.9.

- Majburlash;
- Kelishuv;
- Muammoni hal qilish.

Tarkibiy-tashkiliy usullarga quyidagilar kiradi:

Amaliy harakatga bo'lgan talabni tushuntirish usuli. Bu usul disfunktsional usulga mutlaqo zid bo'lib, bunda har bir hodim va bo'limlardan qanday natija kutilishi tushuntiriladi. Bu yerda ularga quyidagilar eslatiladi:

- Erishishi lozim bo'lgan natija ko'lam;
- Kim axborotni topshiradi va kim uni qabul qiladi;
- Mas'uliyat, javobgarlik va vakolat tizimi;
- Aniq siyosat, tartib-qoidalar va h.k.

Rahbar bu masalalarni o'zi uchun aniqlashtirish maqsadida emas, balki har bir vaziyatda, har bir xodim va bo'lim qay tarzda ish tutishini, ularni nima kutishini tushuntirib bermog'i lozim.

Nizoni boshqarish uning tomonidan ehtimol uning maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan harakatni taqazo qiladi, shu jumladan biri boshqasiga ham o'sishga imkon beradi, ham muammoni boshqaradi¹.

Muvofiqlashtirish va integratsiyalash usuli. Bu usul og'zaki buyruq (amr) zanjiri deb yuritiladi.

Boshqarishda vakolatlar ierarxiyasini, ya'ni mansablarga ko'ra darajama-daraja bevosita itoat etish, bo'ysunush tartibini o'rnatish kishilarning o'zaro harakatlarini, tashkilotlar ichidagi axborotlar oqimini, qarorlar qabul qilishni tartibga tushiradi, muvofiqlashtiradi.

Agar ikki yoki undan ko'proq bo'ysunuvchilar o'rtasida u yoki bu masala yuzasidan qarama-qarshilik, kelishmovchilik chiqib qoladigan bo'lsa, bunday ixtilofni ularning tegishli boshliklariga aytirib hal qilish mumkin. Bu yerda yakka hokimlik prinsipi juda ham qo'l keladi.

¹ <http://www.grandars.ru/college/sociologiya/upravlenie-politicheskim-konfliktom.html>

“Barcha nizolar umumiy element va umumiy rivolanish shakliga ega va bu umumiy elementlarni o’rganish ehtimol nizo fenomenini har qanday uning o’ziga xos ko’rinishida aks ettirishi mumkin”¹.

Nizoli vaziyatlarni boshqarishda:

- Boshqarish ierarxiyalarini;
- Funktsiyalararo aloqani ta’minlovchi xizmat bo’limlarini;
- Funktsiyalararo guruhlarini;
- Maqsadli guruhlar va bo’limlararo majlislarni integratsiyalash ham juda

katta rol o’ynaydi.

Umumtashkiliy (kompleks) maqsadlar. Bu usulning mohiyati — barcha qatnashchilarning harakatini, butun kuchini bosh maqsadning amalga oshishiga safarbar qilish.

Nizoli vaziyatlarning oldini olish yoki ziddiyatni yumshatishning beshta strategik usuli ma’lum:

Uzoqlanish. Komil inson janjaldan uzoqlashishga harakat kiladi. Kelishmovchilik avjiga chiqkanda u muhokamaga qatnashmaydi. Bunday usul nizoli vaziyatning yechilishiga manfaatdor bo’lmagan va o’zaro manosabatlarning zohiriy yaxshiligicha qolishini istashgan hollarda tomonlar tarafidan qo’llaniladi.

Agar ziddiyat sub’ektiv sabablar tufayli bulgan bo’lsa, u holda uzoqlashish strategiyasi ma’qul strategiyadir. Chunki u tomonlarga tinchlanishga, vaziyat ustida yana bir bor fikr-muloxaza yuritib, fahm-farosat ila anglab olish, oqibatda esa qarama-qarshilikka borishga, uni davom ettirishga hech qanday asos yo’q degan xulosaga kelishiga imkon beradi. Agar ziddiyat ob’ektiv sabablar tufayli yuzaga kelgan bo’lsa, uzoqlashish strategiyasi har ikkala tomonni mag’lubiyatga olib boradi. Chunki uzoqlashish davrida vaqt cho’ziladi, nizoli vaziyatni chaqiruvchi sabablar chuqurlashadi.

Nizo – bu o’zaro kurashuvchi subyektlar yoki muxoliflarning bir-biriga qarshi maqsadlari, pozitsiyalari, fikrlari va qarashlarining to’qnashuvidir¹.

¹ Bouding K. Conflict and Defence: A General Theory. – New York: Harper & Row, 1963. – P. 308.

Silliqlashish. Bu usul kishilarni yaxshilikka undash yoʻli bilan nizoni bartaraf kilishga karatilgan. Ziddiyatli vaziyatda qarama-qarshi tomonlar bir-biri bilan xushmuomalali boʻlishga, arzimagan narsaga achchiqlanish, umuman, bir vaqtning oʻzida birga suzayotgan qayiqni "qaltis tebratish " yaramasligiga chaqirishadi.

Bunday usul ikkala tomondan bittasining lavozim darajasi yoki mavqei yuqori boʻlgan va u mazkur ziddiyat buyicha oʻzini baxslashishga tushishni lozim deb bilmagan hollarda qoʻllaniladi. Bunda ziddiyatga tushishdan voz kechgan tomon muxolifiga oʻz istagiga erishishga imkon bersada, ikkala tomon oʻrtasidagi dahshatli "yongʻin " soʻnadi va kelajakda ham yaxshi munosabat saqlanib qolishiga erishiladi. Shu tariqa ishonch orkali vaziyat silliqlashadi.

Majburlash – bu tomonlardan birining xohish-irodasini, soʻzini majburan, zoʻrlab qabul qildirishdir. Soʻzini oʻtkazmokchi bulgan tomon qarshi tomonning fikri bilan hisoblashmaydi, uni inkor etadi. Bunday strategiyani qoʻllaydigan tomon tajavvuzkorlik bilan oʻz xohishini qarshi tomonga majburlab oʻtkazadi. Bu usulni koʻproq rahbarlar qoʻl ostida ishlaydiganlarga nisbatan qoʻllashadi.

Xalqaro siyosiy nizolarning subektlari alohida davlatlar, davlat birlashmalari, BMT yoki ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va ideologik-siyosiy yoki diniy harakatlar².

Majburlash strategiyasi tashabbusni bugʻadi, obyektlarda "ruhiy iqlim"ning beqarorligiga olib keladi.

Kelishuv. Nizoli holatdan muvaffaqiyatli chiqishning eng muhim sharti — bu murosaga kela olishdir. Kelishuv bilan nizolarni hal etish, bu yuqori baholanuvchi strategik usul bulib, bunda ikkala tomonni qanoatlantiruvchi yechimga kelinadi.

Muammoni hal qilish. Bu usul barcha tomonlarni qanoatlantiruvchi yechimni topish uchun nizoni chaqiruvchi sabablarni chuqur tahlil qilish va barchaning fikrlarini inobatga olishga asoslanadi. Bu usul tarafdorlari oʻz maqsadiga boshqalar maqsadi orqali emas, balki nizoning eng oqilona yechimini topish evaziga erishishni xohlaydilar.

¹ Радугин А., Радугин К. Социология. – М.: Центр, 1996. – С. 117.

² Давлатчина С. Конфликтология. – Улан-Удэ: ВСГТУ, 2005. – С.65.

Manfaatlar va ehtiyojlar to'g'risida gap ketganda ingliz olimlari R. Luse va H. Paifo bu borada to'xtalib, shunday deganlar. “Jamiki ilmiy va diniy adabiyotlarda manfaatlar to'qnashuvi muammosi bosh mavzulardan biri bo'lgan, balki ushbu mavzuni Alloh haqidagi yoki sevgi va ichki tuyg'ular haqidagi mavzularga tenglashtirish mumkindir. Ehtimol “manfaat” tushunchasiga nisbatan juda oshirib yuborilgan bahodir. Biroq konfliktologiyada ham manfaatlar to'qnashuvi fanning markaziy muammolaridan biri sifatida o'rganiladi¹.

Nizo – bu qarashlardagi yoki a'loqalardagi qandaydir kelishmovchilik va chigallikning yuzaga kelganligidan darak beruvchi bir belgidir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, nizo boshqarishning asosiy uchta yo'nalishi mavjud: nizodan qochish, nizoga bosim o'tkazish va shaxsan nizoni boshqarish. Nomi aytib o'tilgan yo'nalishlarning har biri maxsus metodlar yordamida izohlanadi. Ulardan ba'zilarini ko'rib chiqsak, va hamda nizoviy holatga ta'sir o'tkazish va nizoli holatga a'loqador tavsiyalarning umumiy algoritmiga baho bersak.

Bu borada Ardalon Yakovlevich Kibanov bir qancha fikrlar bildirgan. Nizolarning boshqarishning ko'pgina metodlari mavjud. Ularni bir nechta guruhlarga ajratish mumkin:

- Shaxsiy ichki;
- Tuzilmaviy;
- Shaxslar o'rtasida;
- Muzokaralar;
- Qarshi javob harakatlari².

Shaxsiy ichki metodlar alohida shaxsda harakat qiladi va alohida fe'l-atvor jihatidan to'g'ri tuzilgan bo'ladi.

Bozor munosabatlari sharoitida o'tish jarayonida iqtisodiyotning yangicha qonuniyatlarini ko'rish mumkin. Mantiqan olganda bozor – bu qarama-qarshiliklarning raqobat maydini. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar iqtisodiy raqobat doirasidan chiqib konfliktli holatga kelishi ham mumkin. Bunday bo'lishga

¹Жумаев Р., Убайдуллаев У. Конфликтология асослари. –Т.: Академия, 2000. –Б.60.

²Кибанов А.Я. Управление конфликтами: основные методы и варианты действий. – М., 2011. – С. 42.

sabab iqtisodchilarning sof iqtisodiy qonunlari doirasidan chiqib, iqtisodiy muhit uchun nomaqbul vositalardan foydalanishidir. Qolaversa, iqtisodiy soha bilan shug'ullanib keluvchilarning iqtisodiy ish yuritish manbalarini, iqtisodiy bilim asoslarni bilmasliklari ham sabab bo'lib qolishi mumkin. Mana shunday holatlarga yo'l qo'yilsa, garchi bozor iqtisodiyotiga o'tish davri bo'lsa-da o'ta xavfli konfliktlar kutilmaganda yuzaga kelishi va davlatga katta zarar yetkazishi mumkin.

Masalan:

- Ish tashlash;
- Lokaut holatlar;
- O'ta moliyaviy inqiroz vhz.

1956 yilda zamonamiy tadqiqotchilaridan Lyuis Kocherning "Ijtimoiy konflikt funksiyalari" nomli kitobi nashr etildi. Unda L.Kocher nizoli jamiyat, demak nizosiz ijtimoiy guruhlar, qatlamlar ham bo'lmasligini ta'kidlar ekan, nizolar jamiyat tuzumining yangicha rivojlanishi va almashishida ijobiy ahamiyatga ega ekanligini alohida uqtiradi. L.Kochsr "nizoning ijobiy funksional konsepsiyasi" deb nomlangan nazariy dasturini klassik funksionalizm nazariyasiga qarama-qarshi tarzda ishlab chiqdi. Unda nizolar ijtimoiy tahlil chegaralaridan tashkarida o'rganiladi. Agar funksional tizim tarafdorlari ijtimoiy nizolarda ijtimoiy ziddiyatlar, jamiyatning tartibsizlanish belgilarini ko'rsa, L.Kozsr esa aksincha, nizolarning jamiyatdagi har qanday tartibsizlik va barkarorlikni ta'min etishdagi ijobiy e'tiborini qaratdi va uni asoslab berishga urindi. Uning fikricha, jamiyatdagi barqarorlik jamiyatdagi nizoli munosabatlar va ular o'rtasidagi aloqalar turiga bog'liq. Jamiyatda qancha ko'p nizo turlari bo'lsa, ularni guruhlarga ajratish shunchalik qiyinlashadi. Qolaversa, jamiyatdagi konfliktlarni umumiy qilib bir-biriga yaqin deb e'tirof etish o'ta mantiqsizlikdir. Garchi ular diniy yoki etnik xarakter kasb etsalarda, baribir nizo tushunchasi umumiy qadriyatlar va me'yorlarga ega emas. Demak, nizolar o'zaro bir-birlariga bog'liq bo'lmasalar, jamiyat birligi uchun yaxshi tayanch yaratilgan bo'ladi degan xulosaga kelish mumkin.

Boshqarish strategiyalari turlari qatoriga quyidagilar kiradi:

➤ Normativ yoki axloqiy-huquqiy strategiya. Bunda nizoni bartaraf etish sudga yoki arbitrajga tortilishi bilan ahloqiy va huquqiy normalarni qo'llash bilan boshqaruv-huquqiy yoki etnik asosga ega bo'ladi;

➤ Realistik strategiya – u har qanday samarali vositalarga yo'naltirilgan bo'ladi (aholi, qo'rqitish, xavf solish, savdolashish va boshqalar.);

➤ Birlashish – hamkorlikka va umumiy qiziqish va maqsadlarni izlash va nizoviy jihatdan qochishni nazarga tutadi¹.

Jamiyatning konfliktlarsiz rivojlanishi borasidagi qarashlar Ch.Mills va boshqalarning asarlarida ham tanqid qilingan. Viroq 80- yillar boshida jahonda nafaqat rivojlanish, balki tinch-totuv yashash va doimiy barqarorlikka erishish uchun konfliktlarga chek qo'yish haqidagi qarashlar shakllandi. Bunday jarayonga, avvalo, umumbashariy muammolarni bartaraf etish uchun davlatlarning hamkorligiga bo'lgan tabiiy talab sezilardi ta'sir o'tkazdi. Birinchilar qatorida "umumbashariy muammodar"ni tadqiq lishga Rim klubi a'zolari alohida e'tibor qaratib, bu borada "tizimni tahlil" uslubini qo'lladilar. Ushbu klub xalqaro nohukumat tashkiloti bo'lib, o'z safiga jahondagi ko'plab davlat va jamoat arboblarni, olimlarni birlashtirgan edi. Klubning Rimda o'tkazilgan birinchi yig'ilishida (shuning uchun tashkilot Rim klubi deb atala boshlangan) insoniyat haqidagi umumbashariy muammolarning nechog'lik murakkab bo'lib, ularni bartaraf etish uchun yer yuzidagi mamlakatlarning o'zaro hamkorligini yo'lga qo'yish lozimligini, zero hech bir davlat insoniyatga xavf solib turgan bunday global muammolarni alohida holatda yecha olmasligini, jahon ommasiga qarata bayon qildi.

Klubda o'tkazilgan yig'ilishlarda ko'plab siyosiy ziddiyatlar, urush va mojarolar, tinchlik muammolari muhokama etildi. Ushbu muhokama etilgan muammolarning aksarini yer yuzida tinchlikni ta'minlash masalasi tashkil etdi. Zero tinchlikni ta'minlash urushning yo'qligi demaqdir. Qolaversa, yer yuzida urushlarga barham berish tinchlik haqidagi maqsadlarning samarali intihosidir. Faqat jahon rivojlanishidagi uyg'unlik sharoiti, davlatlar o'rtasidagi hamkorlik

¹ Тургаев А., Хренов А. Е. Управление политическим конфликтом. – М., 2005. –С.143.

orqaligina mustahkam tinchlik va xavfsizlikka erishish mumkin. Davlatlarning o‘zaro hamkorlikka intilishi xalqaro keskinliklarni yumshatish uchungina emas, balki davlatlar umummanfaatlari mushtarakligini ham namoyishetadi. Qolaversa uzoq kelajakni ko‘zlab qilingan hamkorlik shartlari tomonlar uchun musobaqalashuv yoki rakobatlashuvdan ko‘ra manfaatliroqdir. Barqarorlik va tinchlik sharoitida jamiyagning yangicha turmush tarziga erishish uchun Rim klubi mutaxassisleri ijobiy taraqqiyot va o‘shining yangicha konsepsiyalarini taklif qiladilar. Klub azosi, Germaniyalik taniqli jamoat va siyoat arbobi E.Pestel uzviy taraqqiyotning o‘ziga xos tomonlarga ega ekanligini aytib uni quyidagicha ta’riflaydi:

- o‘zaro aloqadorlikdagi tizim ya’ni bir-biriga zarar yetkazmasdan o‘zaro bog‘liq ravishda o‘sadigan tizim - jamiyatdagi professiv o‘zgarishlar;

- turli xil tizim qismlari tatablariga javob beradigan ko‘p tomonlama rivojlanish, shuning uchun ham dunyoning turli mintaqalarida joylashgan davlatlar turlicha rivojlanadi (buning ustiga rivojlanish jarayoni vaqt o‘tishi bilan o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o‘zgarib turadi);

- maqsadlarning koordinatsion mushtarakligi tinchlikni ta’minlashga daxldor ekanligini bildiradi.

Konfliktologiya muammolari xususida XX asrda bildirilgan turli xil mulohazalar bilan tanishib shunday fikrga kelindiki, ya’ni konfliktologiya muammolariga nisbatan tadqiqotlar ko‘lami ikki yo‘nalishda o‘z aksini topgan. Birinchi, G‘arbiy Yevropa (Fransiya, Gollandiya, Italiya, GFR, Yaponiya)da shakllanib o‘zining muayyan rivojlanish bosqichiga ega bo‘lgan ilmiy institutlar faoliyatiga bog‘lik. Ikkinchi, AQShda yuzaga kelgan va rivojlangan ilmiy yo‘nalish. Umuman ikkala makonda tadqiqot olib borgan olimlarning maqsadlari mushtarak, faqat ular obyektga nisbagan turli xil uslubiy yodashuvlar asosida o‘z fikrlarini bayon etishgan xolos. Qarang, tadqiqotlardan biri g‘alabaga erishish yo‘llari haqida fikr yuritib: "Tinchlik istasang urushni o‘rgan", - deydi. Tinchlikni yoqlovchi instituti tadqiqotchilari esa tinchlik va kelishuv muammolariga e’tibor qaratadilar. Yana misol tariqasida 1990-yilda rus tilida nashr etilgan R.Fisher va

U.Yurilarning "Totuvlikka yo‘l yoki mag‘lubiyatsiz muzokaralar" kitobini keltirish mumkin. Umuman olganda, keyingi yillarda konfliktlar va ularni hal etish yo‘llariga qiziqish tobora ortib bormoqda. Albatta, bunga real hayotning tabiiy taqazosi sifatida qarash kerak. 1997 yil Seulda bo‘lgan Xalqaro siyosiy fanlar assotsiatsiyasi kongressida ko‘rilgan masalalar ham fikrimizni isbotlab turibdi. Ma‘lumki kongressda muhokama qilingan masalar yer yuzidagi nizolar va ularni bartaraf etish masalalariga qaratilgan edi.

K.Boulding yozishicha, ko‘pgina nizolar nafaqat jamiyatda, balki tirik tabiatda ham mavjud va hatto “suvning quruqlikka qarshi va yerdagi ma‘lum bir tur shaklining boshqa biriga qarshi nihoyasiz urushi”¹ ga o‘xshash noorganik olamda ham mavjud.

Inson ongi jamiyatni kuch ishlatishsiz rivojlantirish bo‘yicha bir qancha konsepsiyalar ishlab chiqdi. Biroq shu narsa aniqki, kuch ishlatishdan butunlay voz kechib bo‘lmaydi. Kuch ishlatish o‘zida salbiy holatlarni aks ettirishi bilan birga, ijobiy holatlarga ham ega. Kuch ishlatish ba‘zan zarur bo‘lib qoladi (ta‘sir ko‘rsatish vositasi sifatida), masalan, jinoyatchilik bilan kurashish, siyosiy radikalizm va ekstremizmni cheklashda.

Kuch ishlatish bilan kurashish strategik rejasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Davlat iqtisodiyotini qayta tiklash va jamiyatning barcha qatlamlari va sinflari uchun normal hayotiy sharoitlar yaratib berish;
2. Aftoritarizmni insonlar ongidan o‘chirish va yangi liberal-demokratik madaniyatni shakllantirish;
3. Huquqiy madaniyatni qayta tiklash va nizolarni vujudga keltiruvchi kuch ishlatish vositalaridan qochuvchi mexanizmlarni yaratish;
4. Jamiyatdagi siyosiy boshqaruvchi demokratik mexanizmlar rivojini ta‘minlash².

Shunday qilib insoniyat o‘zining tarixiy taraqqiyoti davrida nizolarning kelib chiqishi, uning sabablari va uni boshqarish va tartibga solish mexanizmlarini ishlab

¹ Boulding K. Conflict and Defence: A General Theory. – New York: Harper & Row, 1963. – P. 217.

² Давлетчина С.Б. Конфликтология. – Улан-Удэ: ВСГТУ, 2005. – С.67.

chiqdi. Hozirgi kundagi davlatlarning ichida vujudga keluvchi nizolar odatda boshqa davlat manfaatlarini ta'minlovchi bir vosita bo'lib qolganligi juda achinarli holat. Bular qatoriga turli davlatlarda, masalan, "sovuq urush" davrida bo'lgan Koreya yarim orolidagi nizolar, Vetnam voqealari, Karib inqirozi va 90-yillardan keying vaqtlarda vujudga kelgan, asosan, Sobiq Ittifoq davlatlarida yuzaga kelgan "rangli inqiloblar", bundan tashqari, ko'pgina arab davlatlarini larzaga solgan va hozirda ham o'zining aniq yechimini topa olmayotgan "arab bahori" voqealari, ko'pgina Afrika davlatlaridagi nizoli vaziyatlar, Afg'onistondagi fuqarolar urushi, Iroqdagi voqealar shular jumlasidandir. Albatta bunda o'sha mamlakatda yashab turgan fuqarolarning ham aybi bor deyish mumkin. Bunga ularning siyosiy, axloqiy madaniyatlari va tushunchalarining yuksalmaganini sabab deb ayta olamiz.

2-BOB. AFG‘ON MUAMMOSINI BARTARAF ETISHDAGI AQSH SIYOSATINING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI

2.1. Afg‘on muammosining vujudga kelishi

Afg'oniston oxirgi 100 yillikdagi dunyodagi notinch va bu notinchlik doimiy davom etgan davlatlardan biridir. Afg'onistondagi harbiy-siyosiy inqiroz va Tojikistondagi barqarorlikning yo'qligi to'laligicha Markaziy Osiyoning barqarorligiga ta'sir etmay qolmaydi¹. O'z tarixida birinchi marta pashtunlar sulolasi tomonidan faqatgina XVII-asrga kelibgina Afg'on davlatchiligiga asos solindi. XVIII-asrga kelib esa Afg'on mustaqil qirolligi tashkil etildi. 1880-1901-yillarda Afg'oniston haqiqiy mustaqil davlat sifatida tarixida birinchi va oxirgi (hozircha) marta o'z siyosatini yurgizdi. Lekin bu holat uzoqqa cho'zilmadi, albatta. Uning Evrosiyo qit'asining qoq markazida joylashganligi va qudratli imperiyalar orasida siqilib qolgani bu mamlakatning fojeali taqdiriga sabab bo'ldi desak adashmaymiz. Afg'onistonning geografik joylashuvi va xalqining xarakterli jihatlari Markaziy Osiyodagi ishlarda shunday siyosiy ahamiyatlilik berish mumkinki, uni deyarli maqtab ko'rsatishning iloji yo'q.

XIX-asrga kelib Afg'oniston dunyodagi ikki eng qudratli imperiyalar o'rtasidagi raqobat qurboni bo'ldi. Buyuk Britaniya o'zining dunyo dengizlaridagi hukmronligi bilan qudratli bo'lsa, Rus imperiyasi quruqlikdagi gegemonlikka da'vogar edi. Ruslarning asosiy maqsadi Hind yerlariga yo'l ochish bo'lsa, Buyuk Britaniyaliklar Ruslarning kuchayib ketishini oldini olishga Usmoniylar Imperiyasi bilan birgalikda tish-tirnoqlari bilan harakat qilishayotgan edi. Ruslarning O'rta Osiyoda mustahkam o'rnashib olishmaganidan foydalangan Buyuk britaniya Afg'onistonga birinchi qadamni qo'yadi. 1914-yildagi 1-jahon urushining boshlanishi bilan, bu strategik o'yinlar ikki davlatning ham kun tartibidan olib tashlandi. Urushdan so'ng Buyuk Britaniya o'zining "Dengizlar Qirol" mavqeini

¹ Каримов И. Узбекистан на пороге XXI века: угрозы безопасности, условия и гарантии прогресса. – М.: Дрофа, 1997. – С.25.

butunlay yo'qotdi, Rus imperiyasi esa inqirozga yuz tutib, “oktabr inqilobi” natijasida mamlakatni Kommunistlar o'z nazorati ostiga oldilar. Birinchi jahon urushi va ikkinchi jahon urushlari orasida Buyuk Britaniya urushdan ko'rgan talofatlarni qoplash va iqtisodiy depressiyadan chiqish bilan ovora bo'lib qoldi, Sovet Ittifoqida esa butun tuzimni o'zgartirish uchun reformalar bo'lib o'tdi. Xullas, Afg'oniston shu davrda o'z holiga tashlab qo'yildi. Bu bir tarafdin Afg'onistonning mustaqil davlat sifatida yashab turganiga imkon yaratgan bo'lsa, boshqa tarafdin Afg'onistonning dunyodan batamom uzilib qolishiga sababchi bo'ldi. Natijada Afg'on jamiyati ilgarigidan ham ko'proq konservatorlik xususiyatini o'zida mujassam qila boshladi, afg'on diplomatiyasi esa deyarli yo'qlikka yuz tutdi.

Xalqaro munosabatlarda bugun konsensusning “Afg'oniston varianti” ham paydo bo'lgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Konsensusda “afg'on variant”ning xarakteri shundan iboratki, unda tomonlar kelishivi yuzakichilikka asoslanib, amalda o'z bilgan yo'llaridan qolishmaydi. Shuning uchun ham Afg'onistondagi guruhlar o'rtasidagi shu vaqtgacha imzolangan yoki kelishilgan bitimlar rasmiy va nazariy jihatdan benuqson bo'lishi mumkin, biroq ularning amaliyotga yaramayotganligini afg'on fojeasining serqirraligini ko'rsatib turibdi¹.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyo xaritasi keskin o'zgardi. Oldingi qudratli davlatlar bo'lmish Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniya xalqaro maydonda o'rinlarini AQSh va Sobiq Ittifoqga bo'shatib berdilar. AQSh shu davrgacha o'z qobig'iga o'ralish siyosatini olib borib, xalqaro o'yinlarda deyarli qatnashmas edi, qatnashsa ham uning hududi Lotin Amerikasi va Tinch okeanidan chetga chiqmagan edi. Ikkinchi Jahon urushidan so'ng esa Sobiq Ittifoqning ulkan sotsialistik mamlakatlarga asos solishi uni o'zining odatiy siyosatini xalqaro imperializm doktrinasiga o'zgartirishga majbur qildi.

1947-yilda Hindiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Buyuk Britaniyaning va boshqa Yevropa davlatlarining Osiyodagi mustamlakalarini qo'ldan berishlari Sobiq Ittifoq uchun o'zining gegemonligini mustahkamlab olish uchun katta imkoniyatlar yaratdi. 1940-yilda Xitoyda kommunistlarning hokimiyatga kelishi va

¹ Жумаев Р., Убайдуллаев У. Конфликтология асослари. –Т.: Академия, 2000. –Б.127.

Xitoyning Sobiq Ittifoq bilan tuzgan ittifoqi, tarixdagi eng katta va davomiy (hudud jihatdan) yagona ideologiya ostida birlashgan ittifoqni yaratdi. Sharqiy Yevropadan, Shimoliy Koreyagacha, Shimoliy Muz okeanidan Vietnamgacha bo'lgan yaxlit hududni egallagan kommunistlar bloki, Yevropaliklarga va Amerikaliklarga katta qo'rquv tug'dirgan edi. Sovuq urush davomida AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlari bu blokning nozik joylarini axtarishar edi. Bu strategik doktrinani amalga oshirishda Afg'oniston va Pokistondagi nozik siyosiy ahvol va separatizm G'arb davlatlari yumushlarini birmuncha yengillashtirdi. “Uchinchi dunyo mamlakatlarining ko'p qismi tarixga shunday bo'lib kirdiki, ular ko'p yillar davomida nizolar hududi bo'lib qoladilar”¹.

O'sha davrdagi Afg'onistonning ahvoli hozirgi ahvoldan unchalik ko'p yaxshiroq emas edi. O'zining 20 millionlik aholisi ma'lum bir millatni emas, balki demografik massani ko'proq aks ettirar edi. 80% aholi Sunniylardan, 15% Shialardan va qolgan 5% aholi Sixar, Hindiylar va Buddistlardan tashkil topgan edi. Garchi katta to'qnashuvlar Shia va Sunniy musulmonlar orasida yuz bergan bo'lsa ham, boshqa din vakillarining o'z e'tiqodi oqibatida qurbon bo'lishlari bu hududda ko'p kuzatilgan. Millatlar orasidagi to'qnashuvlar ham bu mamlakatni tashqi kuchlarga o'ta ta'sirchan bo'lib qolishiga sabab bo'ldi. Undan tashqari qo'shni Pokistonda istiqomat qiluvchi pashtun aholisining bosimi to'g'ridan-to'g'ri Afg'onistonga va Pokistonga ta'sir qilib kelmoqda edi. Hatto pashtunlar orasida Pashtuniston davlatini tuzish rejalari ham yo'q bo'lgan emas.

1953-yildan boshlab bosh vazir Dovud Sovet Ittifoqi yordamida mamlakatni modernizatsiyalashga kirishdi, lekin hukumatdagi notinchliklar bu reformalarni davomiyligiga xalaqit berardi. 1973-yil 17-iyunda monarxiya tugatildi: davlat to'ntarishini shohning amakivachchasi Muhammad Doud amalga oshirdi. U mamlakat bosh vaziri deb e'lon qilindi. Yangi rejim eski tartibga ko'nikkan ruhiniylar, yirik zamindorlar, davlat amaldorlarining noroziligini keltirib chiqardi. Boshqa tomondan, yangi tuzum keng xalq ommasini ham faolikka chaqirdi. Afg'oniston xalq-demokratik partiyasi

¹ Fukuyama. F. The End of History?// The National Interest. – New York, 1989. – № 16, Summer. – P.15.

(AXDP) xalqqa qarshi tuzum bilan kurashayotgan vatanparvar kuchlarga rahbarlik qildi. Hukmron tuzum tarafdorlari islom ekstremistik tashkilotlari bilan ham yaqindan a'loqada bo'ldi. Bunday diniy tashkilollardan foydalangan Doud tuzumi o'z mavjudligini bir qadar uzaytirdi, biroq bu hol uni tugal halokatdan saqlab qola olmadi. Biroq avvalboshidan partiya ikki guruh – Nur Muhammad Tarakiy boshchiligidagi Xalq va Babrak Karmal boshchiligidagi Parcham (bayroq) partiyalari o'rtasida ziddiyatlar yuzaga keldi va u dushmanlikka aylandi¹.

Shunga qaramasdan mamlakatda davlat to'ntarishlari kamaymaydi, bularning oxirgisi 1978-yilda Dovudning o'ldirilishi va hukumatni kommunistlarga xayrihox kuchlar tomonidan Muhammad Tarakiy boshchiligida egallanishi bilan ham tugamadi.

Daud va uning 30 ta oila a'zosi qatl qilindi. 1977-yilgi Konstitutsiya bekor qilinib, 1978-yil 30-aprelda Afg'oniston Demokratik Respublikasi (ADR) e'lon qilindi. Mazkur “aprel inqilobi” natijasida kommunist N.M.Tarakiy bosh vazir, Babrak Karmal esa uning o'rinbosari bo'ldi. Aynan shu yili ikkila fraksiya qaytadan bo'linishdi. Babrak Karmal Chexoslovakiyada elchi sifatida jo'natildi. Davlat tepasiga kelishi bilanoq Tarakiy Sobiq Ittifoq bilan do'stlik va harbiy ittifoq to'g'risida shartnoma tuzadi. Tarakiy Sobiq Ittifoqdan moliyaviy va iqtisodiy ko'mak oldi. Minglab ittifoq qo'shinlari Afg'onistonga keltirildi.

April inqilobidan bir yil o'tib, 1979-yil aprelda kommunistik tuzumga qarshi barcha hududlarda bir vaqtda qo'zg'olonlar boshlandi. Hukumat faqat shaharlarni nazorat qildi, ammo mamlakatning kirish qiyin bo'lgan markaziy qismi ustidan hukmronlik yo'qotildi.

Tarakiyning siyosatini sust deb baholagan Sovet Ittifoqi uni bosh vaziri Hafizullo Amin bilan almashtirishga qaror qildi. Lekin Amin qo'zg'olonchilarga qarshi qonli siyosat olib borishiga qaramay u Sovetlarni qoniqtirmaydi, chunki u repressiyaning asosiy qismini Afg'on siyosiy maydonidagi o'zining raqobatchilarini yo'q qilishga qaratadi, shu jumladan ko'pchilik kommunistik

¹ Бобокулов И. Марказий Осиёда хавфсизликни таъминлаш муаммолари. –Т.:ЖИДУ, 2008. –Б.38.

faollar o'ldiriladi. Undan tashqari Amin Afg'onistondagi Musulmon qo'zg'olonchilarini o'ziga og'dirish maqsadida Quronni eng oliy manba sifatida va kommunistik tuzum ateizmga asoslanmaganini isbotlashga harakat qilganligi ma'lum bo'ladi.

Hafizullo Amin Afg'onistonni atigi 3 oy boshqaradi, shu uch oy davomida Afg'onistonda o'ldirilganlar soni 15000 kishidan oshib ketdi. Sovet Ittifoqining harbiy yordamida Hafizullo Amin butun butun qishloqlarni yer yuzidan supurib yuborgan, bu holat mamlakatdagi norozilikni battar kuchaytirdi. Bu esa Sovet Ittifoqiga mamlakatga intervensiya uyushtirishga bahona tug'dirdi.

Sobiq Ittifoqning Afg'onistonga hujumga tayyorgarligi boshlandi. Markaziy Osiyo joylashtirilgan bo'linmalar o'zbeklar va turkmanlar asosida to'ldirildi va kuchaytirildi. Xuddi shu vaqtda Sobiq Ittifoq hukumati Aminni Ittifoq qo'shinlarini kiritish va hokimiyatni Babrak Karmal berishga ko'ndirishga harakat qilishdi, ammo Amin qat'iyana bunga qarshi chiqdi.

“Sobuq urush” davrida AQSH Sovet orbitasiga tushib qolishidan himoya qilishga harakat qildi. Richar Nikson vitse-prezident bo'lgan vaqtda 1975-yilda Afg'onistonga tashrif buyurdi, Prezident Ezhnover esa 1959-yilda mazkur davlatga o'z safarini amalga oshirdi. Prezident Kennidi 1963-yilda Zohir Shohni AQSHga taklif qildi. AQSH Sovetlar bilan kurashish uchun qishloq xo'jaligi bo'yicha va boshqa sohalarda ko'mak berishga harakat qildi¹.

1979-yil 27-dekabrda Sovet Ittifoqining Shtorm-333 operatsiyasi uyushtirildi. 27-dekabr og'ir kun bo'ldi. O'sha vaqtda 105-bo'linmaning bir qismi Kobulda o'z strategik nuqtalarini egallashdi, boshqa qismlar esa janubiy Kobuldagi Darulomon qasrini o'rab olishdi. Bu voqeadan bir necha kun oldin Afg'onistondagi general-leytenant Paputin xavfsizlikni bahona qilib Aminni bu yoqqa kelishini maslahat qilgandi.

Sobiq Ittifoqga sodiq bo'lgan va Pragadagi elchilik vazifasidan Afg'onistonga kelgan Babrak Karmal prezidentlik lavozimiga o'tkazildi. Karmal

¹ Kenneth Katzman Afghanistan: Post-Taliban Governance, Security, and U.S. Policy. – New York: Congressional Research Service, 2013. – P.14.

barcha a'loqalarda oddiy Ittifoq qo'g'irchog'i bo'lib qoldi. Islohotlarga va ko'pgina hibsga olinganlarning ozodlikka chiqarilishiga qaramay, aholi B. Karmalni qo'llab-quvvatlamadi. Aksincha, bosqinchilarga qarshi kurashga odatlanib qolishdi va uni yoqtirmay qo'yishdi.

28-dekabrda Sobiq Ittifoq o'z harbiy qismlarini Afg'onistonga kiritdi. Tez orada bu qo'shinlar soni 85 ming kishiga yetdi. Jahon jamoatchiligi Sobiq Ittifoqning bu harakatini qattiq qoraladi. Ayni paytda sovet – amerika munosabatlari yanada keskinlashdi. 1982-yildan Jenevada bu masalada BMT komissiyasi ishladi. Asosan Pokiston hududiga joylashgan muxolifatchi kuchlari AQSHning zamonaviy qurollari bilan qurollantirildi. Sobiq Ittifoq qo'shinlari Afg'onistonda 10 yil turdi. Harbiy operatsiyalarda qatnashdi. Biroq u himoya qilgan rejim hech nimaga erisha olmadi. Xo'sh, nega shunday bo'ldi? Chunki Afg'oniston hukumati sovet nusxasidagi jamiyatni qurmoqchi bo'lgan edi. Afg'onistonda bunday jamiyatni qurishning esa iloji yo'q edi. Ikkinchidan, afg'on xalqi ko'z o'ngida yangi hukumat ateistik davlat armiyasini o'z davlati hududiga kiritib katta gunohga botgan edi. Bunday hukumatni qo'llash esa undanda katta gunoh bo'lar edi. Shu tariqa Sobiq Ittifoq Afg'onistonda harbiy muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Buni yaxshi anglab yetgan M. S. Gorbachyov Sobiq Ittifoq armiyasini Afg'onistondan olib chiqib ketishga qaror qildi. Va 1989-yilning fevral oyida bu vazifa amalda bajarildi. 15 mingdan ortiq sovet jangchilari halok bo'ldi.

1989-yil 15-fevralda Sobiq Ittifoq qo'shinlarining Afg'onistondan olib chiqib ketilishi urushni to'xtatmadi. Muhammad Doud (1974-1978 yy.) reformalari davrida mamlakatda iqtisodiy hayot prinsplarining demokratik-burjua shakllari va ijtimoiy tabaqalanish vujudga keldi¹.

AQSHning SALT-2 shartnomasini² imzolashdan bosh tortishi va G'arbiy Yevropadagi AQSHning ballistik raketalarining o'rnatilishi Sovetlarda G'arb

¹ Ахромович Т. Афганистан в 1961-1966 гг. – М.: Наука, 1967. – С.6.

² O'zaro kelishuvlar. SALT IIning dastlabki maqsadi ommaviy strategik qirg'in qurollari tizimiga katta chegaralar o'rnatish bo'yicha kelishuv edi. SALT II tashbuslaridan AQSHning asosiy maqsadi tomonlarda strategik qurollar

dunyosi bilan hech qanday kelishuvga erishib bo'lmalik taasurotini keltirib chiqardi. Sobiq Ittifoq qurolsizlanish bo'yicha G'arb bilan baravarlikni tasdiqlaydigan muzokaralar olib borish va bitimlar tuzishdan ayniqsa manfaatdordir, deb ta'kidlangan. Lekin, AQSHning hukmron doiralari xuddi shunday baravarlik, tenglik bilan kelishishni xohlamayaptilar, o'z muskullarini ishga solish vaqti keldi deb hisoblashmoqdalar. 1981-yil 1-yanvarda "Washington post" gazetasi "AQSH siyosatining o'nlab ijodkorlari"dan intervyu olib: "Amerikaning hech bir hukumati hech mahal tenglikni e'tirof etishga tayyor turgan emas" deb yozdi¹.

Jorjtaun aqliy markazining yetakchi hodimlaridan biri R. Klaynning AQSHda saylovoldi kompaniyasi avjiga chiqqan 1980-yilda e'lon qilingan tadqiqoti quyidagi senariyni nazarda tutadi. 80-yillarda jahon "Yevroosiyo perimetri bo'yicha itisodiy resurslar tufayli bo'ladigan kelishmovchiliklarga to'la bo'lishi lozim. G'arb davlatlarining "operatsiyalar hududi" Atlantika, Tinch va Hind okeanlarini o'z ichiga oladiki, "xom ashyo ana shu okeanlar orqali iste'molchilarga yetib keladi". Bu xildagi "operatsiyalar" muvaffaqiyatli bo'lishi uchun G'arb davlatlari allaqanday "umumokean" harbiy ittifoqiga jipslashishlari kerak. Bunda g'arb davlatlari harakatlarining suhnday ko'lamli sovuqqonlik bilan rejalashtirilganki, "hozirgi dunyodagi taxminan yuzta zaif davlatning" ko'pchiligi bu harakatlar obyekti bo'lib qolgan. "Tinchlikni saqlab qolish operatsiyalari" jarayonida "bu davlatlardan hammasi ham omon qoladi, deb bo'lmashligi" o'z-o'zidan tushunarli ekanligi ham nazarda tutilgan².

miqdorini tenglashtirish, ularning tarqalishini qisqartirish va ularning ko'payishiga kelajak barqarorligiga xavf bo'lganligi sababli qat'iy ta'qiqni majburan o'rnatish bo'ldi. Huquqiy holati

SALT II tashabbusi 1972-yil noyabrda boshlangan. Asosiy harakat 1974-yil noyabrda Vladivostokda bo'lib o'tgan Prezident Ford va Brejnev uchrashuvlarida bo'lgan. Bu uchrashuvda tomonlar SALT II shartnomasining boshlang'ich shakliga kelishishgan. SALT Ining to'laqonli shakli Prezident Karter va Brejnev o'rtasida 1979-yil 18-iyunda imzolangan. Prezident Karter uni tasdiqlash uchun 22-iyunda Senatga taqdim etgan. 1980-yil 3-yanvarda Prezident talabi bilan uni muhokamasi kechiktirilgan, bunga sabab SSSRning Afg'onistonga intervensiyasi bo'ldi.

In May 1982, President Reagan stated he would do nothing to undercut the SALT agreements as long as the Soviet Union showed equal restraint. The Soviet Union again agreed to abide by the unratified Treaty. Subsequently, in 1984 and 1985, President Reagan declared that the Soviet Union had violated its political commitment to observe the SALT II Treaty. On May 26, 1986, President Reagan stated that "... the United States must base decisions regarding its strategic force structure on the nature and magnitude of the threat posed by Soviet strategic forces and not on standards contained in the SALT structure...."

¹ Ovinnikov.R. Maxfiy xavfli siyosat. -T.: O'zbekiston, 1983. - B.41.

² O'sha kitob - B.44.

Bu voqealarni chetdan kuzatayotgan AQSH to'qnashuvlarga to'g'ridan to'g'ri aralasha olmas edi, AQSH tarixidagi eng katta yo'qotishlardan biri bo'lmish Vetnam urushining xotiralari hali Amerika xalqining xotirasidan o'chmagan edi, undan keyingi Eron bilan bo'lgan siyosiy krizislar esa uning Xalqaro siyosiy maydonda bundan buyon faqat "ko'rinmas" holda harakatlanishni talab qilar edi. Jimmiy Karter prezidentligi davrida bosh maslahatchi bo'lib faoliyat yurgizgan Zbigniev Bjezenskiy Kommunistik blokni butunlay mag'lub qilish uchun yangi dastur ishlab chiqadi. - "Ancha real fikrlovchi siyosatchilar (ular orasida davlar sekretari S.Vens ham bor edi) prezidentning milliy xavfsizlik masalalari yuzasidan maslahatchisi Z.Bjezenskiy tipidagi arboblarni yo'liqqan antisovetizmga qarshi turishga intildilar.

Karter bir oy Vensning fikriga, ikkinchi oy Bjezenskiyning fikriga qo'shilgan. U 1979-yilning iyun oyida SQCH-2 shartnomasiga ham imzo qo'ygan edi. Lekin aynan uning davrida Sovet Ittifoqi bilan munosabatlarni keskinlashtirish tarafdorlari uzil-kesil va qat'iy g'alaba qildilar"¹. – yuqorida aytib o'tigan Zbigniev tomonidan ishlab chiqilgan dasturga ko'ra asosiy ideologik hujum sifatida Inson huquqlari va Demokratik tamoyillar olingan bo'lib, Sobiq Ittifoqdagi fundamental erkinliklarning cheklanganligi uning zaif tomoni bo'lib xizmat qilishini ta'kidlaydi, shu jumladan din erkinligi.

Gorbachevning hukumatga kelishi va "Qayta qurish" reformasini amalga oshirilishi Musulmon xalqlariga berilgan kuchli zarba bo'ldi. "Glasnost" siyosati orqali "Paxta ishi" va millatchilik hamda traditsionalizmga qarshi kurashda eng ko'p jabr ko'rganlar O'rta Osiyoning Musulmon aholisi bo'ldi. Bunday diskriminatsiya O'rta Osiyoda juda yomon ruhda qabul qilindi. Bjezenskiy ana shu Sobiq Ittifoqning nozik tomonini o'sha davrda ko'ra bilgan edi va Sobiq Ittifoqning zaif biqini bo'lmish O'rta Osiyoga Islomizmni rivojlantirish bilan zarba berishni mo'ljalladi, uning bu rejasi qisman amalda ish berdi. Sobiq Ittifoqning Afg'onistonga yurishi boshlanishi bilanoq AQSHning MRB (The Central Intelligence Agency (CIA) – AQSH federal hukumatining ma'lumotlar to'plovchi

¹ Ovinnikov.R. Maxfiy xavfli siyosat. –T.: O'zbekiston, 1983. –B.34.

maxsus agentliklaridan biri)¹ xizmati bilan Pokiston maxfiy xizmatlari Afg'onistondagi jangarilarga harbiy materiallar va oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazishni yo'lga qo'ydilar. Butun Arab mamlakatlari va Musulmon mamlakatlaridan Afg'onistondagi "muqaddas urushga" ko'ngilli askarlar yollandilar.

1988-yil 14-aprelda Gorbachev BMT yetkazilgan qo'shinlarni olib chiqib ketish (Jeneva sulhi)ga rozi bo'ldi. Mamlakatni Najibulloning kuchsiz hokimiyatiga qoldirib, qo'shinlarni olib chiqib ketish 1989-yil 15-fevralgacha to'la amalga oshirildi².

1989-yilda Sovet Armiyasi Afg'onistonni tark etdi. 10 yillik urush davomida Afg'oniston deyarli butunlay vayron qilindi, mamlakat tashqi kuchlarning ta'siriga to'laligicha tushib qoldi. Sovetlarning urushi Afg'onistonni Islomiy radikallashtirgan kuchlarning markaziga aylantirdi, ayniqsa bu hududda giyohvandlikni rivojlanishiga olib keldi. Afg'onistondagi bunday notinchlik va ahvolning murakkabligi uning joylashgan o'rnini bilan bog'liqdir. 1980-yillarda bu hudud G'arb va Sobiq Ittifoq o'rtasidagi raqobat maydoni bo'lsa, Sovet Ittifoqi parchalangandan so'ng bu hudud Islom dinining turli mahzablari orasidagi raqobatning va Afg'onistondagi millatlar orasidagi kurashning qurboni bo'ldi.

Sobiq Ittifoqning 1979-1989-yillardagi harbiy aralashuvi mamlakatdagi mavjud qarama-qarshilikni kuchaytirib o'zining negativ rolini ijro etdi. Hamma oqibatlarni faqatgina sovetlarning aralashuviga bog'lash juda ham oddiy qaror. Afg'onistonning inqirozli statusining doimiy shakllanib qolishi oldinroq yuz bergan tarixiy rivojlanish natijasidir. " Bizning harbiy qarshiligimiz ruslarning harbiy bosqinidan keyin emas, Doud hukmronligi davridan boshlangan", - deb ta'kidladi Gulbuliddin Hekmatyor³.

¹ http://en.wikipedia.org/wiki/Central_Intelligence_Agency

² Kenneth Katzman Afghanistan: Post-Taliban Governance, Security, and U.S. Policy. – New York: Congressional Research Service, 2013. – P.3.

³ Спольников В. Н. Афганистан: исламская контрреволюция. – М.: Наука, 1987. – С.28.

1991-yil 13-sentabrda Moskva-Vashington 1992-yil 13-sentabdan boshlab afg'on kurashchilariga harbiy yordam bermaslikka kelishib olishdi¹.

1991-yil 13-sentabrda Ittifoq-AQSH bayonoti tashqi aralashuvlarsiz afg'on xalqi o'z taqdirini o'zi belgilashi huquqini tantanali e'lon qilindi, harbiy harakatlar to'xtatilishini ta'kidladi, tezda BMT qaramog'ida erkin saylovlar o'tkazilishi va o'tish davri mexanizmi tuzilishini e'lon qilindi. Xuddi shu kuni Afg'onistonga qurol-yaroq yetkazib berish to'xtatildi. 1991-yil 15-noyabrda Sobiq Ittifoq va mujohid vakillari delegatsiyalari o'rtasida kelishuvlar bo'lib o'tdi. Unda Ittifoq-AQSH tomonidan qabul qilingan hujjatda ta'kidlangan mintaqadagi vaziyatni tartibga solish to'g'risidagi kelishuvlar e'lon qilindi.

Afg'onistondagi turli etnik, siyosiy-diniy kuchlar o'rtasida hokimiyat uchun kurash uzoq davom etdi. 1996-yilda Afg'onistonning katta qismida tolibonlar hokimiyati o'rnatildi. Ular Afg'onistonni islom davlatiga aylantirdilar. Tolibonlarga qarshi kuchlar «Shimoliy alyans» (ittifoq)ga birlashdilar. Tolibon va Shimoliy alyans o'rtasida qirg'inbarot urushi olib borildi. Pokiston va Saudiya Arabistoni tolibonlar hokimiyatini tan oldilar va unga keng ko'lamli yordam ko'rsatdilar. Afg'onistondagi holat nafaqat bu davlatning, balki uning qo'shnilari, qolaversa, jahon hamjamiyatining muammosiga aylandi. Afg'oniston hududi ayni paytda narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasi, diniy ekstremizm va fanatizm, terrorchilik o'lkasi bo'lib qoldi. Binobarin, Afg'oniston muammosi yalpi xavfsizlikka ham jiddiy tahdid solayotgan muammoga aylandi.

Poytaxt Kobul shahrida AXDP rahbarlaridan biri, 1986-yilda B. Karmal o'rniga kelgan Najibullo hokimiyatni saqlab turdi. Ayni paytda muxolifat kuchlar ham o'z hukumatini tuzdilar. Sibhatullo Mujadaddiy mamlakat prezidenti etib tayinlandi. Muxolifat kuchlar 1992-yilda Najibullo hukumatini ag'darishga muvaffaq bo'ldilar. Najibullo BMTning Afg'onistondagi vakolatxonasida boshpana topdi. Shu tariqa Sobiq Ittifoqning Afg'onistondagi

¹Kenneth Katzman Afghanistan: Post-Taliban Governance, Security, and U.S. Policy. –N.Y.: Congressional Research Service, 2013. – P.10.

tayanchi quladi. Jahon jamoatchiligi 10 yil davom etgan va mamlakatni vayronaga aylantirgan, millionlab kishilar boshiga cheksiz kulfatlar solgan urush shu bilan tugadi, deb umid qilgan edi. Biroq bunday bo'lmadi. Afg'onistonda fuqarolar urushi davom etaverdi. Buning sababi muxolifat kuchlar g'alabasidan so'ng ular o'rtasida hokimiyat uchun boshlangan kurash edi. Muxolifat kuchlar Afg'onistonda yashovchi turli etnik (pushtunlar, tojiklar, o'zbeklar va boshqalar) hamda diniy guruhlarining vakillari edilar.

Najibullo ag'darilgach, Kobul shahrini birinchi bo'lib general Ahmad Shoh Mas'ud boshchiligidagi tojiklarning qurolli kuchlari egalladi. Shu etnik guruh vakili Burhoniddin Rabboniy esa prezidentlik lavozimini egalladi.

Tojiklarning hokimiyatni egallaganligiga pushtunlar lideri Hekmatyor toqat qila olmadi. Boshqa etnik guruhlar esa o'zlari egallab kelayotgan hududda mustahkamlanib ola boshladi. Ba'zilar goh u tomon, goh bu tomon bilan kelishishga intildi. Shu tariqa fuqarolar urushi yangi bir sharoitda davom etdi. Buning oqibatida minglab begunoh tinch aholi halok bo'ldi. B. Rabboniy mamlakatning kelgusi taqdirini hal etishi lozim bo'lgan Ta'sis majlisini chaqirishni istamadi. Bosh vazir Hekmatyor esa norozilik belgisi sifatida iste'fo berdi. Qurolli kurash yana avj oldi. Mamlakatda siyosiy vaziyat borgan sari og'irlashdi.

Mana shunday sharoitda Afg'oniston siyosiy hayotida hech kutilmagan yangi siyosiy kuch — tolibonlar (Alloh o'quvchilari) paydo bo'ldi. Ular 1994-yilning noyabr oyida kurash maydoniga chiqdilar. Xo'sh, tolibonlar kimlar edi o'zi? Ular Afg'onistonda jamiyat hayotini sof islom asosida qayta qurish uchun kurashga bel bog'lagan diniy-siyosiy guruh vakillaridir. Ularning katta qismini fuqarolar urushi davrida yetim qolgan bolalar tashkil etardi. Sovet armiyasi Afg'onistonga kiritilgach, ular Pokiston hududida boshpana topgan edilar. Urush davrida Pokistonga qochib o'tgan 5 mln afg'on qochoqlar farzandlarining ham ma'lum qismi tolibon guruhiga jalb etilgan.

Klinton ma'muriyati Tolibonlar 1994-yil Qandahorni egallaganda, ular bilan muzokalar o'tkazishga harakat qildi. Ammo ma'muriyat ularning siyosatini va

yomonlashgan a'loqalarni to'g'iray olmadi. AQSH Tolibonlarning hukumatini qonuniy hukumat sifatida tan olishdan bosh tortdi. AQSH Tolibonlar bilan emas Rabboni hukumati bilan a'loqa qildi¹.

Tolibonlarga qarshi kuchlar orasidagi o'zaro kelishmovchilik ularga qo'l keldi. 1996-yilning oktabr oyida tolibonlar Kobul shahrini egalladi. So'ng ular jamiyatni to'la islomlashtirish siyosatini yurita boshladilar. Dunyoviy maktablar yopildi. Ayollar paranji yopinishga, erkaklar soqol qo'yishga majbur etildi, qarshilik ko'rsatganlar ayovsiz jazolandi. 1997- yilning iyunida ular muxolifat kuchlarni (asosan tojik Ahmad Shoh Mas'ud va o'zbek Abdurashid Do'stum harbiy kuchlarini) tor-mor etish yo'lida urushni davom ettirdi. Mamlakat hududining 90 foizi tolibonlar nazoratiga o'tdi. Tolibonlarga qarshi kuchlar mamlakat shimoliga siqib qo'yildi. Ular endi birlashishga majbur bo'ldilar. Shu tariqa Shimoliy Alyans deb atalgan ittifoq vujudga keldi.

Tolibon harakati Afg'onistonni musulmon qonunlari va shariat ahkomlari orqali boshqardilar. 1997 yil oktabr oyida mamlakat mulla Umar amirligida Afg'oniston Islom amirligi, deb e'lon qilinadi va uni faqat 3 ta mamlakat, ya'ni Pokiston, Saudiya Arabistoni va Quvayt tan oladilar².

Mazkur muammolar keskin tus olib bordi va butun mintaqaga katta xavf sola boshladi.

XXI-asrga kelib esa bu hudud to'laligicha geostrategik o'yinlar maydoniga aylandi.

2.2. AQSh tashqi siyosatida Afg'on vektorining shakllanishi va Af-Pak strategiyasining muammoni bartaraf etishdagi o'rni

Afg'onistonning XX-XXI asrlarda rivoji XIX asr oxirlari va XX asr boshlaridagi voqealar, ya'ni Afg'oniston davlat sifatida shakllanishi Britaniya va

¹Kenneth K. Afghanistan: Post-Taliban governance, security, and U.S. policy. – Congressional research service. February 8, 2013. –P.7.

²Искандаров К. Талибан: факторы возрождения и перспективы мира и региональной безопасности // Материалы международная конференция: Афганистан и региональная безопасность: пять лет после Талибана. Выпуск III (11-12 декабря 2006 г.). –Бишкек, 2006. –С.45.

Rossiya imperiyalari o'rtasidagi murosali manfaatlari unga mustaqil va o'z-o'zini idora etishni berdi. XX asrning ikkinchi yarmida dunyoning ikki tizimi qarama-qarshiligi sharoitida Afg'oniston geopolitik kurash obyektiga bo'lishda davom etdi. "Katta o'yin" bir asosiy o'yinchining almashishi bilan boshlandi, bu yerda va boshqa ko'plab geopolitik teatrlardagi kabi Buyuk Britaniyaning o'rnini AQSH egalladi¹.

Najibullo hukumatining qulashidan keyin hukumat mujohidlar partiyalari o'rtasida tashlab qo'yildi. Kichik partiya (Afg'on Milliy Liberal Front)ning rahbari, islomiy olim Sibhatullo Mujadeddi 1992-yil aprel may oyigacha mamlakat prezidenti bo'ldi. 1992-yil boshida Kobul partizanlar tomonidan egallandi va 50 ta boshqaruv kengashidan tashkil topgan yangi hukumat tuzildi. Asosiy partiyalar o'rtasidagi kelishuvlar natijasida 1992-yil iyun oyida Rabboni prezidentlik lavozimini egalladi. U mamlakatni 1994-yil dekabr oyiga qadar boshqardi. Siyosiy hokimiyat yaxshi vakilsiz qulashini aytib, u o'sha vaqtda iste'foga chiqishni rad etdi. Bu qaror mujohid liderlariga qarshi qaratilgan edi, shu jumladan, pashtun va konservativ islomiy partiya hisoblangan Hezb-e Islom partiyasining rahbari Gulbuddin Hekmatyorga. G'olib partizanlar birlasha olmasligi ayon bo'ldi va partizan kuchlari rahbari Gulbuddin Hekmatyor yangi hukumatga qarshi kurashni boshladi. Turli fraksiyalar o'rtasida kurash davom etayotgan vaqtda Afg'oniston har qaysi o'zining boshqaruvchisiga ega bo'lgan bir necha mustaqil mintaqalarga bo'linib ketdi. Hekmatyor va turli ittifoq fraksiyalari Rabboniyni qulatilish uchun kurash boshladilar. Agar Hekmatyor Kobulning g'arbiy qismini vayron qilgan o'qqa tutish ishlarini to'xtatsa, Rabboni uni primer ministr bo'lishiga rozilik bildirdi. Biroq, Hekmatyorning Rabboniyga nisbatan ishonchsizligi sababli, u Kobulda bu lavozimni egallashini hechqachon taxmin qilmagan edi.

1994-yil boshlarida Islom fundamentalist talabalarning Pashtun harbiylari, ya'ni Tolibonlar, katta kuch sifatida vujudga keldi.

¹Афганистан и безопасность Центральной Азии. Вып. 1/ Под ред. А.А. Князева. – Бишкек: Илим, 2004. – С.3.

1996-yil 23-iyunda Florensiyada Yevropa Ittifoqiga (YI) a'zo mamlakatlarning davlat va hukumat boshliqlari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda Prezidentimiz I.Karimov afg'on muammosini tartibga solishda YIni faol ishtirok etishga chaqirgan¹.

1996-yil boshlarida Tolibonlar Afg'oniston boshqaruviga ega bo'lish uchun harakatni davom ettirayotgan bir vaqtda Rabboniy va Hekmatiyor Hekmatiyorni bosh vazir etib tayinlash bo'yicha hujjatni imzoladilar. Sentabrda Tolibonlar Kobulni egalladilar va o'zlarini Afg'oniston Islom Amirligining qonuniy hukumati deb e'lon qildilar; ular o'zlari egallab turgan mamlakatning uchdan ikki qismida islom qonun-qoidalarining qisman puritan (puritanlar ingliz XVI-XVII asrlardagi Protestantlarining mashhur guruhlari. Puritanlar bu ma'noda 1558-yildagi Elizaveta I ning ruxsatidan keyin ruhoniylarning Angliya cherkovini o'z ichiga olgan harakat sifatida Marian surgunlarlaridan tashkil topgan)² shaklini joriy qilishdi.

1998-yil avgustda Tolibonlar butun mamlakatni boshqaruvini qo'lga olish arafasida turib qolgan vaqtda AQSH reaktiv snaryadlari 1998-yilda AQSHning Kenya va Tanzayadagi elchixonalarini portlatgan Saudiyada tug'ilgan Tolibonlarning harbiy yetakchisi Usama bin Loden tomonidan boshqarilayotgan Kobul yaqinidagi terroristlarning katta mashg'ulot kompleksini portlatdi. 1999-yil mart oyida BMTning tinchlik kelishuvi xati Tolibonlar va ularning asosiy dushmani bo'lib qolgan etnik tojik va sobiq mujohidlar rahbari va Shimoliy Ittifoq kuchlari rahbari Ahmad Shoh Mas'udga yetkazildi. Noyabr oyida BMT Afg'onistonga iqtisodiy sanksiyalar qo'lladi; 2000-yil dekabrda BMT sanksiyalarga qo'shimcha ravishda Tolibonlarga qurol-yaroq sotishni ta'qiqlovchi sanksiya ham joriy qildi.

2000-yillarga kelganda Tolibonlar davlatning deyarli 90 % ini o'z nazoratlari ostiga olishdi. Sentabr oyida Shimoliy Ittifoq rahbari Mas'ud arab junalisti sifatida niqoblangan yollanma qotil tomonidan o'zini portlatishi natijasida halok bo'ldi.

¹Акмалов Ш. Национальная стратегия Республики Узбекистан в вопросах мирного урегулирования афганского конфликта. –Т.:2009. –С.14.

² <http://en.wikipedia.org/wiki/Puritan>

Mazkur hujumdan ikki kun o'tib, AQSH prezidenti tomonidan bin Ladenning hibsga olinishi talabi javobi sifatida Tolibonlar tomonidan egizak Dunyo Savdo Markazi binosi va Pentagon binosi portlatildi.

2001-yil 11-sentabrdan keying haftalarda AQSH hukumati terroristik harakatga Osama bin Ladenning Al Qoida guruhi javobgar ekanligini ta'kidladi. Al Qoida Afg'onistonning Tolibonlar nomi bilan mashhur eng ashaddiy Islomiy hukumati tomonidan qo'llab-quvvatlangan va ma'qullangan va mamlakatda bohpana berilgan. Prezident Bush Tolibonlardan bin Lodenni topshirishni va Al Qoida guruhini bo'lib tashlashni talab qildi¹.

Qachonki Tolibonlar bin Lodenni topshirishdan bosh tortishgandan so'ng AQSH 2001-yil oktabrida Tolibon va Al Qoida kuchlariga (bin Ladenning tashkiloti) qarshi harakatlarni boshladi. AQSH, shunigdek, Shimoliy Ittifoq va boshqa oppozitsion guruhlariga moliyaviy ko'mak berishni ham boshladi. Barcha jihatlar bo'yicha vaziyat ancha yomon edi. Mamlakatga joylashtirilgan 20 ming amerikalik harbiylarning shaxsiy tarkibi tinch aholi xavfsizligini ta'minlash uchun emas, balki bin Lodenni va toliblarni qidirishga tashlandi (birinchi ilova). Amerikalik harbiy qismlardan tashqari mamlakatda Xalqaro ISAF² ning Kobul atrofida joylashtirilgan 6500 kishilik tarkibi va Qunduzda joylashtirilgan 250 kishilik Germaniyaning harbiy xizmatchilari mavjud edi³.

9/9 va 9/11 sanalardagi dahshatli terroristik aktlar sababli Afg'on va Amerika xalqlari Al-Qoida va uning hamkori Tolibonlarga qarshi urushda birlashishdi⁴.

Dekabr oylari boshlarida Germaniyadagi Bonda o'tkazilgan pan-afg'on konferensiyasi sobiq podshohga a'loqador bo'lgan Hamid Karzayni prezident

¹ www.choices.edu -U.S. Policy in Afghanistan

² Izoh –“International Security Assistance Force” (ISAF) NATO rahbarligida 2001-yil dekabr oyidagi Birlashgan Millatlar Xavfsizlik Kengashining 1386-rezolyutsiyasi tomonidan asos solingan Afg'onistondagi xavfsizlik missiyasi.

³ Izoh –Harbiy xizmatchilar, ijtimoiy sohadagi ishchilar, injenerlar, shifokorlar va mintaqalarga yuborilgan davlat departamenti vakillaridan iborat bo'lgan Birlashgan mintaqaviy qo'mindonligini (JRT) tuzish, AQSH qo'mondonligi fikri bo'yicha, Hamid Karzayga uning hokimiyatini Kobul chegaralariga yoyish uchun yordam edi. JRTni butun mamlakat bo'ylab joylashtirish ko'zda tutildi – jumladan, Bomiyon, Mazori-Sharif, Hirot, Gardez, Jalolobod va Qandahorda. Ularning tuzilishi 2003-yil bahorida boshlandi. AQSHning Iroqqa hujumi arafasidagi Afg'onistonning turli mintaqalariga JRT ning joylshtirilish qarori amerikaliklarning Afg'onistonni tashlab chiqib ketmoqchi emasligini ham namoyon qilardi.

⁴ Joseph J.C. Understanding war in Afghanistan. – Washington D.C.: National Defence University, 2011. – P.1.

Rabboni o'rnida vaqtinchalik president etib belgiladi. 2002-yil yanvar oyiga kelganda garchi Tolibonlar va Al Qoidaning kattagina kuchlari noma'lumligicha qolgan bir vaqtda ularning bir muncha kuchlari tor-mor qilindi. 2002-yil Gardezda bo'lgan jangga o'xshash urushlar onda-sonda bo'lib turdi. Mamlakatning katta qismi boshqaruvi Tolibonlardan oldingi vaqtdagi boshqaruvchi rahbarlari qo'liga o'tdi; Hekmatyor kabi boshqa kuchlar yangi tuzumga qarshilik qilishdi.

Sobiq podshoh Muhammad Zohir Shoh 2002-yil iyunda o'tish hukumatini tuzish maqsadida Loya Jirg'ani (Loya Jirg'a (Pashtu: جرگه لويه) “katta assambleya” kabi bir jirg'a turi hisoblanadi, pashtu tilidan olingan mazkur birikma “katta kengash” degan ma'noni anglatadi. Loya Jirg'a odatda yangi podshohni tanlash, konstitutsiya qabul qilish yoki muhim milliy siyosiy va favqulotda masalalarni muhokama qilish uchun chaqiriladi¹. Jirg'alar an'analari Afg'oniston sivilizatsiyasi kabi ancha qadimiy bo'lishiga qaramay, uning tajribasi milliy an'ana va zamonaviy qoidalar va Afg'oniston fuqarolari xususiyatiga asoslangan². An'anaviy afg'on katta kengashi chaqirish uchun mamlakatga quvg'indan qaytib keldi. Karzay prezident qilib saylandi (ikki yil muddatga) va podshoh “xalq otasi” deb e'lon qilindi. Karzay va uning kabiniti keyingi oylarda ko'pgina qiyinchiliklarga duch keldi va uning vitse prezidentlaridan biri o'ldirildi hamda Karzayning hayotiga suiqasd uyushtirildi. Shunga qaramay 2002-yil oxirlariga kelib barqarorlik darajasiga erishdi.

2003-yil avgustda NATO Kobul hududida xalqaro xavfsizlik kuchlari qo'mondonligini oldi. Yangi konstitutsiya 2004-yil yanvarda Loya Jirg'a tomonidan qabul qilindi. U kuchli ijro etuvchi prezidentni qo'llab-quvvatlaydi va kamchilik guruhlar roziligini o'z ichiga oladi, ammo ustunlik qiluvchi pashtunlar va boshqa etnik guruhlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar Loya Jirg'ada aniq bo'lib qoldi. 2004-yil boshlarida AQSH va NATO mamlakatda joylashtirilgan qo'shinlar soni orttirilishini bildirishdi. AQSHning Tolibonlar va Al-Qoidaga qarshi operatsiyalari NATOning xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashdagi harakatlari

¹ http://en.wikipedia.org/wiki/Loya_jirga

² <http://www.afghanland.com/history/loyajirga.html>

bilan mos keldi. 2005-yil boshlarida NATO askarlari deyarli 9 mingga oshirilishi eʼlon qilindi.

2004-yil oʻrtalarida BMT mamlakatga kerak deb hisoblagan kichik yordam Afgʻonistonga yetkazildi, keyingi Afgʻonistonni rivojlantirish rejasi uchun esa 5 mlrd.dollardan ortiqroq mablagʻ yetti yilda yetkazilishi aytili. Garchi xorijiy davlatlar uch yil davomida zaruriy jihozlar bilan taʼminlashni vaʼda qilgan boʻlsalarda, Afgʻoniston xavfsizlikgi uchun yetarli kuch va vositalarni oʻz ichiga qamrab olmadi.

Karzay 2004-yil mamlakatda boʻlib oʻtgan birinchi demokratik saylovlarda prezident boʻlib saylandi. Asosan etnik belgilarga koʻra ajratilgan ovoz berish tinch boʻlgan boʻlsa-da, ammo baʼzi qiyinchiliklar yuz berdi.

2005-yil bahorida Tolibon va ularning ittifoqdoshlarining hujumlari kuchaygani sezildi. Faqatgina 2004-yilning iyun oyida bir hududiy vazir, bir politsiya rahbari, bir NAA¹ soldati, bir tarjimon, 12 ta politsiya xodimi, 6ta IIV xodimi oʻdirildi. Xuddi shu oyda 18 ta xalqaro tashkilot xodimlari joniga suiqastr uyushtirildi va halok qilindi. 2003-yilning 12 oyini solishtirsak, 14 ta kishi halok boʻldi. Janubiy mintaqalarda saylovlar arafasida toliblar fuqarolarga qarshi haqiqiy ovni boshlashdi va ovoz berish uchun byuletenlarga kelgan fuqarolar joniga suiqastrlar oʻtkazildi. Iyunda Nuriston provinsiyasida BMTning saylov texnologiyalari boʻyicha mutaxassilaridan 3 nafari oʻldirildi, ulardan 2 nafari inglizlar edi².

Qachonki afgʻon mahbuslari AQSH tomonidan ushlanib, Guantanamodagi tergovchilarning Qurʻonni tahqirlashlari xabari 2005-yil may oyida Afgʻonistonning bir qancha katta-kichik shaharlarida noroziliklar va qoʻzgʻolonlar yuz berdi³. Noroziliklar asosan mamlakatning AQSH harbiy kuchlari harbiy harakatlar olib borayotgan janubi va sharqida yuz berdi, bunga koʻpchilik

¹ Izoh –Afgʻoniston Milliy Armiyasi (National Army of Afghanistan)

² Minimal investments, minimum results: The failure of security policy in Afghanistan. –Afghanistan Research and Evaluation Unit, 2004. –P.11.

³ <http://www.infoplease.com/encyclopedia/world/afghanistan-history.html>

yuqoridagi voqea AQSHliklar tomonidan amalga oshirilgani sabab deb baho berishdi.

2005-yil milliy va mahalliy qonun chiqaruvchi saylovlar bo'lib o'tdi; ba'zi joylarda yashirin ovoz berish soxtalasshtirildi. Karzay tarafdorlari quyi palata (Volesi Jirg'a)da ko'pchilik o'ringa ega bo'lishdi; diniy konservatorlar, sobiq mujohedlar va toliblar, ayollar va pashtunlar saylovda ko'pchilik ovozga ega bo'lishdi. Afg'oniston bilan chegara hududlarda Tolibon va Al Qoida guruhlarining lagerlari nazorati qo'ldan chiqqani sababli rasmiy Kobul bunga Pokistonni jiddiy aybladi va bu holat 2006-yilda davlatlar o'rtasidagi kelishmovchiliklarning o'sishiga olib keldi; yil oxiriga kelib Prezident Karzay Pokiston hukumat doiralari to'g'ridan-to'g'ri Tolibonlarni qo'llab-quvvatlashda aybladi. 2006-yil yanvarda AQSH havo hujumi Pokistondagi Al Qoida rahbarlari uchrashuvlari uyushtirilishi ma'lum bo'lgan bir qancha binolarni vayron qildi.

2006-yil may oyida AQSH ittifoqi 2001-yildan beri Tolibonlarga qarshi o'zining eng katta hujumini boshladi; 11,000 dan oshiq askarlar Tolibonlar kuchaygan va mustahkamlanib olgan Afg'onistonning to'rtta provinsiyasiga yozgi hujumni boshlashdi. Hamda shu yili mayda AQSH kanvoyi bilan yuz bergan Kobuldagi jiddiy yo'l harakati hodisasi shaharda AQSHga qarshi va hukumatga qarshi namoyish va qo'zg'alonlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Iyun oyida NATO Afg'onistonda tinchlikni saqlash uchun javobgarlikni ittifoqdan o'z qo'liga oldi. NATO qo'shinlari oqibatda Qandahor provinsiyasida Tolibonlar kurashishlariga to'g'ri keldi. NATO oktabr oyida 11,000 harbiyni o'z ichiga olgan holda mamlakatda tinchlikni saqlovchi kuchlar qo'mondonligini olishdi; 8,000 mingdan oshiqroq AQSH qo'shinlari Pokiston bilan chegaradosh tog'li hududlarda Tolibon va Al Qoida kuchlari bilan kurush uchun Ozodlikni Yoyish Operatsiyasi¹ tarkibi sifatida qoldirildi.

2006-yilning ikkinchi yarmida yo'qotishlar soni oshgan vaqtda NATO qo'mondonligi zaruriy harbiylar va jihozlar toppish kabi qiyinchiliklarga uchrashdi. NATO rahbarlari ham Afg'oniston davlat boshliqlari kabi Pokistonni

¹ <http://www.infoplease.com/encyclopedia/world/afghanistan-history.html>

asosan Afg'oniston chegarasidagi Balujistonda joylashgan Tolibonlarning havfsiz boshpanalari mavjudligi uchun aybladilar. 2007-yil mart oyida NATO kuchlari Helmand provinsiyasida Tolibon va Al Qoidaga qarshi yangi hujum boshladilar. Xuddi shu oyda Milliy Assambleya oxirgi ikki o'n yillikda fuqarolar huquqini buzganlikda ayblangan afg'on fuqarolariga amnestiya e'lon qilish bo'yicha qonun qabul qildilar.

AQSH havo zarbalari cho'g'idagi afg'on xalqi qurbonlarining oshishi 2008-yilda AQSH va Afg'oniston o'rtasidagi a'loqalarning yomonlashishiga sabab bo'ldi. Agar ba'zan yuz berib turgan 2008-yil davomida qo'zg'alonchilar bilan kurash davom etib turgan bo'lsa, Tolibonlar ham 2002-yildan beri o'zlarining eng jiddiy zarbalarini berishdi. Shu yildagi AQSHning Pokiston chegarasi bo'ylab joylashgan qo'zg'alonchilar qarorgohlari bilan kurashining kuchayishi ikki davlat o'rtasidagi kelishmovchiliklarga sabab bo'ldi. 2008-yil aprelda president Karzay unga uyushtirilgan suiqasddan qutilib qoldi. Iyulda Karzay Hindistonning Pokiston elchixonasi yaqinidagi portlashda va Afg'onistondagi qo'paruvchilik harakatlari orqasida turishda Pokistonlik agentlarni aybladi.

2009-yil yanvarda Afg'oniston saylov komissiyasi prezidentlik saylovini avgustga qadar kechiktirdi. President Karzayning konstitutsiyaviy vakolat muddati mayda tugardi va asosan muholifatchi rahbarlarning Karzayning vakolat muddati tugaganidan so'ng muvaqqat hukumat chaqirish talabi saylovni oldinroq, ya'ni aprelda chaqirilishiga sabab bo'ldi, bu holat amaliyotda oldin kuzatilmagan edi. Helmanddagi AQSH va Afg'onistonning Tolibonlarga qarshi asosiy hujumi 2009-yil iyulda boshlandi; xuddi shu vaqtda AQSH kuchlari qo'rg'alonchilarga qarshi kurashda mahalliy aholidan foydanish taktikasidan keng foydalanishni boshladi.

2009-yil avgustdagi prezidentlik saylovlarida ko'pgina soxtalashtirish ishlari amalga oshirildi. Dastabki saylov natijalariga ko'ra Karzay 55% ovoz oldi, ammo qayta hisob-kitoblar o'tkazildi va qaytadan saylov o'tkazilishi talab qilindi. Shunga qaramay qayta saylov bekor qilindi va Karzay g'alaba qilgani e'lon qilindi, uning raqibi Abdullo Abdullo noyabrda o'zining e'tirozini qaytarib oldi va qayta saylovda ham yana soxtalashtirish bo'lishini ta'kidladi. 2009-yil oxiriga kelib

Obama AQSH harbiy kuchlari 30,000 ga oshirilishini e'lon qildi va NATOdagi ittifoqdoshlari 7,000 qo'shimcha askarni berishni va'da qilishdi. 2010-yildagi oshirilish Afg'on hukumatini qo'llovchi harbiy kuchlarning 120,000 ga yetishiga olib keldi, shundan uchdan ikki qismini AQSH qo'shinlari tashkil qildi. Bu o'sish Tolibonlar bilan kurashishning kuchayishiga va o'z yo'qotishlarining oshishiga sabab bo'ldi.

Aniq dushmanga qarshi birgalikda kurashish kundek ravshan bo'lgan bir vaqtda, turli manfaatlar sababli davlatlar o'rtasida turli bo'linishlar yuzaga keldi. Berilgan mazkur bo'lingan manfaatlar, Hindistonning Afg'onistondagi roli va harakatlari AQSH maqsadlari va qiziqishlaridan ancha yiroq. 2009-yilda mintaqaga tashrif buyurgan mutaxassis Richard Holbruk shunday fikr bildirdi, “dunyoning bu qismidagi har kim bir maqsadda harakat qilishlarini tushunib yetishlari zarur, Hindiston, Pokiston va AQSH umumiy dushmanga yuzlashmoqda, biz birga harakat qilishimiz kerak... biz buni qiyin bo'lishini bilamiz, ammo uch davlatning milliy xavfsizlik manfaatlari aniq xavfli holatda turibdi”¹.

2010-yil yanvarda saylov komissiyasi parlament saylovlarini moliyaviy yetishmovchilik, moddiy ra'minot yetishmasligi va xavfsizlik sababli maydan sentabrga kechiktirdi. Fevralda NATO va Afg'on kuchlari Helmand provensiyasiga hujumini kuchaytirva martga qadar strategik shahar hisoblangan Marjahni o'z nazoratlariga olishdi; keyinroq Qandahor ustidan hukumat nazoratini qayta o'rnatish bo'yicha izchil harakatlar boshlandi. 2010-yil boshlarida Afg'onistondagi saylovlarda xorijiy aralashuvlar ayblarini o'z ichiga olgan qator ayblovlar sababli president va AQSH, NATO va BMT bilan kelishmovchiliklarning o'sgani kuzatildi. Xuddi davr mobaynida u uning kabineti nomzodlari uchun parlament qo'llab-quvvotlovini yutishda qiyinchilikka uchradi.

Shu vaqt orasida, 2010-yilda mamlakatning eng yirik xususiy banki hisoblangan Kobul Bank samarasiz tashkillashtirilgan boshqaruv, firibgarlik va bankdagi o'yinlar sababli hukumat bilan a'loqalari mavjud bo'lgan ijrochilar va

¹US seeks India's full involvement for AfPak policy's success, PTI News Agency (India) from BBC Monitoring South Asia, 2009. –P.4.

aksiyadorlar bilan munosabatlarda inqorozli ahvolga kelib qolishdi; bir qancha millionlar qarz berishdagi g'irromliklar sababli havoga sovurildi. Korrupsiyaga Afg'on xalqi tomonidan xavfsizlik va ishsizlikdan keyingi o'rindagi tashvish sifatida qaramoqdalar. 2012-yilda Transparency International Afg'onistonni 176 ta korrupsiya eng rivojlangan davlatdan 174-o'rinda deb baholadi. Oldingi raqamlarda esa Shimoliy Koreya va Somali turibdi¹.

Prezident Barak Obama 2009-yil 27-martda Afg'oniston va Pokistondagi ahvolga a'loqador bo'lgan butunlay yangi o'zining ma'muriyatining strategiyasini e'lon qildi.

Kori Schakening fikrlariga ko'ra Obamaning Af-Pak strategiyaning uchta jiddiy muammosi bor. Birinchisi, Afg'oniston Obama administratsiyasi kutgan tezlashtrilgan loyihalarni amalga oshira olmaydi. Bunday ko'p sonly qobiliyatli harbiylarni va politsiyachilarni (134,000 qo'shin, 82,000 politsiya xodimlari) tuzish uchun anchagina vaqt kerak bo'ladi. Vaholanki, bu ishlar 2011-yilning oxirlaridan amalga osha boshladi. Ikkinchisi, garchi fuqaro birliklari ta'kidlangan bo'lsada, qadamlar "AQSH fuqarolarining muhim yordamini ishlab chiqish" ovozlari eshitilmadi. Va oxirgisi, strategiya faqat AQSH manfaatlaridan kelib chiqmoqda. NATOning rahbariy davlati yo'q va garchi davlatlar maslahatlashgan bo'lsalarda, ittifoq yoki uni yaxshilash uchun talab qilingan manbalar amalga oshmadi².

Brukingz institutidan Mihail E. O'Hanlon³ yangi dasturni uning Afg'on xalqini himoya qilish va Afg'on harbiylarini tayyorlash kabi jihatlarini juda maqulladi. U Pokistonga ko'proq e'tibor qaratilgan qarorlarni qo'llab quvvatladi. Biroq u strategiya aniq ishlanmalarga muhtoj deb hisoblaydi. Uning hisoblashlaricha qo'shinlar soni 150,000 nafar, balki undan ko'proq bo'lishi kerak, ya'ni 350,000 yoki 400,000 atrofida deb hisoblaydi (ikkinchi ilova).

¹Department for International Development-DFID's Anti-Corruption strategy for Afghanistan. Jan. 2013. <http://www.dfid.gov.uk/afghanistan>

²Aprajita Kashyap Af-Pak strategy. -New Delhi, 2009. - P.2.

³http://www.brookings.edu/opinions/2009/0327_afghanistan_ohanlon.aspx

Bryan Bender va Brian MacQuarrie “Boston Globe”da ma’ruza qilishlaricha Mudofaa vazirligi yordamchi sekretar Michelle Flournoy Afg’onistondagi harakatlariga Pokistondagi nostabil holat to’sqinlik qilmoqda. U yana shuni qo’shimcha qildiki, Afg’onistondagi omadsizlik Pokistondagi omadsizlik xavfining o’sishidir¹.

O’shandan keyin ma’muriyat tomonidan qo’yilgan shartlardan xavotir va “Af-Pak” strategiyasiga aloqador masalalar bo’yicha munozaralar va tanqidlar sezilarli darajada yuz berdi.

Milliy Xavfsizlik Maslahatchisi James Jones AQSH “Afg’oniston va Pokistonga nisbatan ikkita davlat sifatida, ammo mintaqada bitta talab sifatida muomala qiladi” deb izohladi.

Barak Obama bir qanda maqsadlarni o’zining nutqida ilgari surdi: Afg’oniston va Pokistonda Al-Qoidani bo’lib, parchalab, mag’lub qilish; keyinchalik yana mamlakatga qaytishini oldini olish; Al-Qoidani Pokistonda joylashgan asosiy makonlarini yo’q qilish, chunki “Pokistonga kelajakda xavf faqat Al-Qoida va uning ekstremistik ittifoqlaridan kelishi mumkin”.

U, shuningdek, AQSH Pokistonga so’ngi 5 yilda moliyaviy ko’makni 1.5 mln. dollarga oshiradi, va bu yana 5 yilga uzaytiriladi; ammo hech qanday “bo’sh cheklar” bo’lmaydi. O’rniga rivojlanish va tezda yuksalish uchun standartlar bo’ladi. Bunga qo’shimcha tazrda 17 ming askar Afg’onistonga yuboriladi, 4 ming Afg’on Milliy Xavfsizlik Kuchlarini Afg’on xalqi xavfsizligini ta’minlash uchun tayyorlash uchun jo’natiladi. Obama, shuningdek, ko’p imkoniyatlar Afg’oniston va Pokiston fuqarolari xavfsizligi va ijtimoiy-qurilishga sarflanishini aytib o’tdi.

Spearheadresearch.org² saytida chiqqan “Af-Pak strategiyasining qayta ko’rilishi” mavzusidagi maqolada AQSHning bu qabilaviy hududlardagi harbiy faoliyatini tanqid qilgan. Chunki bu holat Pokistonning suverenitetini buzadi va unga ziddir. Hujumlar terroristlarning yangi a’zolarinig to’plashiga sababchi bo’lishi mumkin va bu narsa xalqning g’azablanishiga olib kelishi mumkin.

¹ Bryan Bender and Brian MacQuarrie, US wary of Pakistan’s ceasefire with Afghanistan, Boston Globe, 23 April 2009

² Af-Pak strategy review, spearheadresearch.org, 30 March 2009

Manbani kuzatishning maqsadi Af-Pak strategiyasi bo'yicha davom etayotgan munozalarni tahlil qilishdir. Mavjud manba quyidagi mavzularni keng kategoriyalaydi. Birinchidan, AQSH tomonidan perspektivalar – ko'pgina maqolalar va ma'lumotlar mazkur strategiya AQSH manfaatlariga zararli deb topmoqda.

Ba'zilarni buni juda foydali va Afg'oniston va Pokiston hukumatlarining tashabbuslariga juda kam e'tibor qaratilgan deb hisoblashmoqda. Ikkinchidan, Pokistonga a'loqador – ko'pgina maqolalarda bu strategiya Pokiston manfaatlariga qarshi degan fikrlar yuritilmoqda. Juda kamchilik tadqiqot davomida “nega AQSH Pokistonga ko'proq e'tibor qaratishi kerak” degan fikrni ma'qulladilar.

Uchinchidan, Afg'onistonning nuqtai-nazari bo'yicha – ko'pgina maqolalar qanday qilib Af-Pak strategiyasi Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka to'siq bo'lishi mumkin degan fikrga e'tibor qaratishgan, ba juda kamchilik yangi strategiyani ma'qullagan. Va nihoyat, Hindiston qarashi Obama strategiyani Hindiston manfaatlarini uchun foydali deb hisoblashmayapti.

BBCning diplomatik muharriri Mark Urban, “AQSHning Af-Pak strategiyasi borasidagi xavotiri”¹ nomli xabarnomasida so'ngi besh yillik tajribaga qaramasdan Pokistonga berilgan ko'makning oshib borayotganidan ko'makdan Kongresmenlarning asabiylashayotganini ko'rsatib beradi. Milliardlab dollarlar moliyaviy yordam qo'zg'alonchi operatsiyalarga qarshi samaradorlik va Al-Qoidaning boshpanalarining tozalanishni kuchaytirishda muvaffaqiyatga erishmadi.

2.3. Xalqaro tinchlikparvar kuchlarining Afg'oniston hududidan olib chiqib ketilishi masalasi

Klinton ma'muriyati Tolibonlar 1994-yil Qandahorni egallaganda, ular bilan muzokalar o'tkazishga harakat qildi. Ammo ma'muriyat ularning siyosatini va yomonlashgan a'loqalarni to'g'iray olmadi. AQSH Tolibonlarning hukumatini

¹ Mark Urban, US disquiet over af-pak strategy, BBC, 6 May 2009

qonuniy hukumat sifatida tan olishdan bosh tortdi. AQSH Tolibonlar bilan emas Rabboni hukumati bilan a'loqa qildi¹. Shundan keyin AQSHning tashqi siyosatida Afg'oniston muhim rol o'ynay boshladi. 9-sentabr voqealaridan keyin mazkur mamlakatda xalqaro kaolitsiyaning harbiy operatsiyalari boshlanib ketdi.

Afg'onistondagi urush ancha qimmatga tushdi. 2001-yildan beri 570 milliard dollarda sarflandi. Iroq va Afg'onistonda urushi sababli jabrlanganlarga yordam berish uchun esa 700 milliard dollar zarur bo'ldi. Afg'oniston esa atiga 1.800 ta AQSH harbiylari va 12,000 Afg'on fuqarolari xarajatlarini qopladi².

2011-yil iyunda, Pokistonda Osama bin Loden o'ldirilganidan keyin, AQSH prezidenti Obama tez orada AQSH qo'shinlari mamlakatni tark etishini va shu bilan birga bir yil ichida 30,000 askar olib chiqib ketilishini bayon qildi. Afg'oniston janubida Tolibonlar bilan muvaffaqiyatli janglar olib borgan qo'shin tezda o'z e'tiborini sharqiy Afg'onistonga qaratdi. Deyarli xuddi shu vaqtda NATO kuchlari mamlakat xavfsizligini Afg'on mahalliy harbiylariga topshirishga katta tayyorgarlikni boshlashdi. Iyulda kuchli va qarshi kurashuvchi shaxs, Qandahorning mahalliy kengashi rahbari, Hamid Karzayning o'gay akasi hayotiga suiqasd o'tkazildi, sentabrda esa Tolibonlar bilan tinchlik muzokaralarini olib borayotgan sobiq president Burhoniddin Rabboni ham tinchlik bo'yicha tashabbuslar boshi berk ko'cha kirgan holatda o'ldirildi. 2011-yil sentabrda va 2012-yil aprelda Kobulda NATO va Afg'on kuchlarini nazorat ostiga oluvchi firmi so'roq ostiga oluvchi jiddiy, ammo chegaralangan hujumlar bo'ldi; bu hujumlarda Al Qoida bilan a'loqalari bo'lgan Pashtunlarning Haqqoni tarmog'ining qo'li borligi aniqlandi. 2012-yildagi NATO sammiti 2014-yilgacha xorijiy tinchlikparvar kuchlarni Afg'onistondan olib chiqib ketilishini ma'qulladi.

2012-yil 1-apreldan 30-sentabrgacha bo'lgan davrni tahli qilish jarayonida, Kaolitsiya va boshqa hamkorlar Afg'on milliy xavfsizlik kuchlariga xavfsizlikni ta'minlashni topshirishni boshlashdi va davom ettirishmoqda. Ittifoqdoshlar Afg'onistonda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida uzoq muddatli shartnomalar

¹Kenneth K. Afghanistan: Post-Taliban governance, security, and U.S. policy. – Congressional research service. February 8, 2013. –P.7.

² <http://www.afghanistanstudygroup.org/2012/01/04/withdraw-troops-from-afghanistan-but-stay-engaged/>

imzolardilar. May oyida Prezident Barak Obama va Prezident Hamid Karzay ikki davlat hamkorligini kelajakda ta'minlovchi Strategik hamkorlik kelishuvini imzoladilar. 2012-yil mayda Chikago Sammitida NATO-ISAF¹ davlatlari Afg'onistonni 2017-yilga qadar miloyaviy qo'llab-quvvatlashlarini bildirdilar. Shundan keyin bir o'tib Tokyo Konferensiyasida xalqaro hamjamiyat 2015-yilga qadar moliyaviy ko'makni berib turishga kelishib olishdi².

Graham Allison va Jon Deutchlarning yozgan maqolalarida Afg'onistonning zamonaviy, rivojlangan va demokratik davlat bo'lishi AQSH uchun uncha muhim manfaat emasligi ta'kidlangan. Ular shuni aytib o'tishadi: Prezident Obamaning o'zi saylov oldi kompaniyasida shuni ta'kidlaydiki "Amerikaning Afg'onistonda faqat bitta juda muhim manfaati bor: AQSH qarshi hujumlar uchun u yerning bazaga aylanmasligi". Bu narsa Afg'onistonni rivojlantirish degani emasligi ular shu bilan asoslashga harakat qilishadi³.

85,795 nafar xalqaro tinchlikparvar qo'shinlarning 47,000 nafari AQSH qo'shinlaridir⁴. 36 ta davlarning bu faoliyatga aralashuvi juda muhimdir ammo bular chegaralangan. Xalqaro kaolitsiya ulushi uncha ko'p miqdorni tashkil etmaydi. Masalan, Buyuk Britaniyaning qo'shinlari 9,500, Germaniya, Fransiya, Niderlandiya, Italiya va Polshaning harbiy askarlari ming nafar ko'proq⁵. Barak Obama buni quyidagi tushuntiradi: "AQSH va Buyuk Britaniya mazkur ishlarga jalb qilindi va aralashmoqda, ammo hech Tolibonlar bilan jang qilishni istamaydi"⁶. Xalqaro hamjamiyat bu masalaga yaqindan qarab kelmoqda. Bu yerda AQSH tinchlik o'rnata oladimi yo yo'q bu juda muhim." Shuning uchun AQSH qo'shinlari Afg'onistonda qolishi va NATO kuchlariga to Al-Qoidaga qarshi kurash tugamagunga qadar ko'maklashishi zarur.

¹Izoh – ISAF- International Security Assistance Force

² Report on progress toward security and stability in Afghanistan. – Report to congress. Dec. 2012.

³ Graham Allison and John Deutch, The Real Afghan Issue is Pakistan. 2010.

⁴ NATO in Afghanistan: Go Big or Get Out. Roland Paris. The Globe and Mail, 25 October 2006.

⁵ NATO Winning Battles, Losing Afghanistan. Ali Gharib. Asia Times, 2 February 2008.

⁶ Saving Afghanistan: An Appeal and Plan for Urgent Action The Atlantic Council of the United States, 30 January 2008.

“Eurasianet.org¹”ning bir maqolasida shu narsaga e’tibor qaratiladiki, Afg’onistonda harbiylarning tashkillashtirilishi xalqning kulfatlari oshashi xavotirlarga sabab bo’lmoqdaki. Ittifoq kuchlari va mahalliy aholi o’rtasidagi asosiy kelishmovchilik oddiy xalqning ko’proq qurbon berishiga sababchi bo’lmoqda.

2009-yil dekabrda president Obama 2014-yilga qadar AQSH qo’shinlarini Afg’onistondan olib chiqib ketilishini aytdi. 2010-yil 22-iyunda Obama 2011-yilning oxirlariga qadar chiqib ketilishini e’lon qilgan edi va 2012-yil yozga qadar qo’shimcha 23,000 qo’shin olib chiqib ketilishini aytdi. Hozirda 80,000 harbiy xizmatchilar Afg’onistonda qolmoqda².

Zeenia Satti Af-Pak strategiya “Afg’on xalqi uchun yaxshiligini, ammo hukumati uchun yomon ekanligini aytib o’tdi. O’zlarining vakillarini saylagan turli provinsiyalar va etnik guruhlar terroristik aktlarni va ayol hamda qizlarni haqoratlashlarni amalga oshirmaydilar, balki yaxshiroq ishlashadi hamda Karzayning Afg’onistonda barqarorlik o’rtanishiga ishonchlari ortadi.

Afg’onistondagi urush o’n yildan oshiroqqa cho’zilib ketdi va Amerika urushlari tarixida Vetnamdan keying eng uzoq cho’zilgan urush bo’lib qolmoqda.

AQSH va uning hamkor davlatlari 2014-yilgacha Afg’onistondagi harbiy ishtirokini qisqartirish va xalqaro xavfsizlik missiyasini yaqkunlamoqchi. 2013-yil 11-yanvarda e’lon qilingan Prezident Obama va Afg’oniston prezidenti Hamid Karzayning kelishuvi bo’yicha 2013-yil bahorida Afg’on harbiy kuchlari butun mamlakatdagi xavfsizlikni o’z zimmasiga ola boshlaydi. 2011-yil iyun oyida 100,000 nafarga yetkazilgan Afg’onistondagi AQSH qo’shinlari 2012-yil 20-sentabrga qadar 68,000 nafargacha qisqartirildi. Yana 34,000 harbiy xizmatchi 2014-yil fevral oyigacha mamlakatdan olib chiqib ketiladi³. AQSHning 2014-yildan keyin qoladigan qo’shinlari soni 2013-yil o’rtalarida e’lon qilinadi, ammo tanlovlar 8,000-12,000 AQSH harbiylari va yarim mingga yaqin hamkorlik

¹Aunohita Mojumdar, Afghanistan: Obama’s afpak strategy and Afghanistan’s response, eurasianet.org, 4 April 2009

²<http://www.usnews.com/debate-club/should-the-us-withdraw-from-afghanistan-sooner>

³Kenneth K. Afghanistan: Post-Taliban governance, security, and U.S. policy. – Congressional research service. February 8, 2013. –P.2.

kuchlari bo'lishi aytilmoqda. 2014-yildan keyin qoladigan AQSH qo'shinlari 2013-yil 1-mayda imzolangan AQSH-Afg'oniston strategik hamkorlik bitimi bo'yicha harakat qilishadi. Ular Afg'on Milliy Xavfsizlik Kuchlarini (ANSF) tayyorlaydi, ammo ba'zilar terrorizmga qarshi kurashlarda ham jalb etiladi. Hamon, 2014-yildan keyingi xalqaro kuchlar chiqib ketganidan keyin Tolibonlarning qayta hokimiyatni olish vahimasi va nobarqaror holatdan qo'rquvga tushgan etnik va siyosiy fraksiya rahbarlari o'zlarining harbiy kuchlarini qayta tiklashmoqda.

Ma'muriyatni 2014-yildan keyin Afg'onistonda kuchsiz va korrupsiyaga botgan hokimiyat hamda Pokistondagi isyonchilarning boshpanalari tashvishlantirmoqda. AQSH rasmiylari Afg'on hukumatini shaffof va samarali bo'lishiga harakat qilishmoqda va 2014-yil 5-apreldagi saylovlarda 2009-2010-yillardagi Afg'onistondagi saylovlarda sodir bo'lgan soxtalashtirishlardan xolis qilishmoqchi. Afg'oniston saylov komissiyasi keying president saylovlari NATO harbiy kuchlari mamlakatdan olib chiqib ketilishidan bir necha oldin, 2014-yil 5-aprelda bo'lishini ma'lum qilgan. Hamid Karzay uchinchi marta o'z nomzodini qo'ya olmaydi¹. Mamlakat xavfsizligi uchun kutilmagan potensial foyda Afg'on hukumati va Tolibonlar o'rtasidagi kelishuvlar bo'lishi mumkin. 2010-yildan boshlangan, ba'zan bo'lib turadigan, lekin norasmiy muhokamalar tashabbuslar davom etdi va bir qancha muzokaralar aniq maqsadlarga aylantirildi. Afg'onistondagi ba'zi kamchilik guruhlar va ayollar guruhi Tolibonlar bo'layotgan mazkur tashabbuslar mamlakatdagi inson huquqlari va etnik hokimiyat bo'linishi tartibini buzib yuborishi mumkinligidan qo'rqishmoqda.

AQSH va boshqa donor davlatlar turli infrastruktura loyihalarini amalga oshirishda davom etishmoqda – xususan, suv, elektr energiyasi va yollarga oid loyihalarni. Jiddiy iqtisodiy pasayishni oldini olish uchun xalqaro donorlar o'zlarining aralashuvlarini kamaytishmoqda, AQSH rasmiylari Afg'oniston o'zining qishloq xo'jaligi va mineral resurslarini hamda uglevodorod resurslarini ishga soladi. Shunday ham bo'lmoqda. 2011-yil Afg'oniston tomoni Xitoyning

¹The Economist – November 3/2013.P.7.

“CNPC” kompaniyasi bilan 25 yillik shartmoni imzoladi. Afg'oniston hukumatining bayon qilishi bo'yicha “CNPC” kuniga 1,95 ming barrel neft qazib oladi, 2013-yil 1-yanvardan boshlab bu raqam yiliga 1.5 mln. barrel chiqarilishi ko'zlandi¹. AQSH rasmiylari bundan tashqari Afg'onistonning mintaqaviy savdo va investitsiya hamkoligiga qo'shish yo'llarini izlashmoqda.

Iqtisodiyotda mufavvaqiyatlarga erishilgan bo'lsada, ammo baribir Afg'oniston xalqaro moliyaviy ko'makka muhtojligicha qolmoqda. 2012-moliyaviy yil oxirlariga qadar Tolibonlar hukumati ag'darilgan beri AQSH Afg'onistonga 83 mlrd. dollar moliyaviy yordam ko'rsatdi, shulardan 51 mlrd. dollar afg'on harbiylarini tayyorlash va jihozlash ishlariga sarflandi. 2001-2012-yillar davomida Afg'onistonga intervensiya barcha xarajatlarni hisobga olganda 557 mlrd. dollarga tushdi. 9.7 mlrd. dollar iqtisodiy yordam va qo'shimcha 82 mlrd. dollar 2013-yil davomida AQSH harbiylariga sarfanadi. 2012-yil 8-iyunda Tokyo donorlari konfrensiyasida e'lon qilinganidek iqtisodiy yordam xuddi shu darajada 2017-yilga qadar berib turiladi².

AQSHning Afg'onistonni tark etishiga bir qancha faktorlar ta'siz ko'rsatdi.

Birinchi, AQSHning bu mamlakatdagi harbiy harakatlari unga qarshi munosabatni kuchaytirdi. AQSHning mazkur mamlakatdagi harbiy harakatlarning 9-yili butun mamlakat bo'ylab unga qarshi munosabatlar kuchayib ketdi.

Ikkinchi, Afg'onistondagi muammo noharbiy yechimlarni talab etmoqda. Afg'oniston dunyoning to'rtinchi qashshoq davlati hisoblanadi, bunga 30 yillab davom etgan urush va uning oqibatlari sabab bo'ldi.

Uchinchi, AQSH harbiylarining mamlakatdagi mavjudligi Tolibonlar harakatini yanada kuchayishiga sabab bo'ldi.

To'rtinchidan, Afg'onistonning mudofaa va xavfsizlik kuchlarining shakllantirilishi qolmaslik sababidir. AQSH harbiylari va NATO rejalari eng kamida 2-3 yil davomida Afg'on harbiylarini va xavfsizlik kuchlari

¹Михаил Агаджанян Китай в Афганистане: экономические инвестиции с прицелом на внешнеполитические дивиденды. М.,2012. –С.9.

²Kenneth K. Afghanistan: Post-Taliban governance, security, and U.S. policy. – Congressional research service. February 8, 2013. –P.14.

mashg'ulotlarini davomiyligini ta'minlash. Ular mahalliy mudofaa kuchlarini 300-400,000 ga yetkazish tavsiya qildilar. Biroq Afg'onistonning yillik davlat budjeti 750 million dollarni tashkil qilgan holda, hukumat buncha harbiy xizmatchining oylik maoshini bera olmaydi.

AQSH mudofaa vaziri Leon Panetta va NATOdagi hamkasbi 2014-yildan keyin Afg'onistonda qoladigan harbiylar sonini 8,000 dan 12,000ga oshirishni ko'rib chiqdilar.

“Biz Lissabon sammitida kelib olganimizdek, 2014-yil oxirlariga qadar barcha majburiyatlarimizni to'laligicha Afg'on xavfsizlik kuchlariga topshiramiz. Bizning maqsadimiz o'zgarmaydi”¹.

Vazirlar Brusselga 11 yillik urushni yakunlashni muhokama etish uchun yig'ildilar. President Barak Obama oxirgi jangovor operatsiyalarda ishtirok etib yurgan askar Afg'onistonni xavfsizlik kuchlariga topshirib 2014-yil 31-dekabrda Afg'onistonni tark etishini aytib o'tdi.

Germaniya Mudofaa Vaziri Tomas de Maiziere jurnalistlarga Panetta 2014-yildan keyin mamlakatda 8,000 dan 10,000 ga qadar harbiylar qolishini ma'lum qilganini bayonot qildi.

Britaniya Afg'onistondagi harbiy harakatlarda ishtirokini davom ettirmoqda. Bu ishtirok u yerdagi xavfsizlikka va fuqarolarning hayotdan ko'z yumushiga sabab bo'lmoqda. Britaniya hukumatia tezroq Afg'onistondan qo'shinlarini olib chiqib ketish zarurligi to'g'risidagi ko'pgina iltimosnomalar tushmoqda.

AQSH Afg'onistondagi maqsadi Al Qoidaning boshpanalarini yo'q qilish va Tolibonlarning Afg'on hukumatini egallab olishiga qarshilik qilish. Bu strategiya konsepsiya AQSH va xalqaro hamkorlar hamda afg'onlar mustahkam davlat siyosati yaratish va xavfsizligini ta'minlash davomida Tolibon qo'zg'alonchilarini yo'q qilish va AQSHning harbiy kuchlarini kamaytirishdir.

Mamlakatdan xalqaro tinchlikparvar qo'shinlarning olib chiqib ketilish masalasi ko'pgian davlatlarning murakkab masalaga aylangan. Ba'zi tahlilchilar Obamaning bundan qisqa vaqt ichida shuncha ko'p sonli qo'shinni olib chiqib

¹NATO Secretary General Anders Fogh Rasmussen, 2 April 2012

ketish qarori ancha qiyinligini aytishmoqda. Bunga qator sabablar ham mavjud. Hozir xalqaro kaolitsiya oldida qo'shnlarni olib chiqib ketishning ikki yo'li bor: janubiy yo'nalish va shimoliy yo'nalish. Janubiy yo'nalish Pokiston davlati orqali o'tadi. Hozirgi kunda AQSH va Pokiston munosabatlarida sovuqchilik tushganligi sababli bu yo'nalish kelajagi savol ostida turibdi. AQSH munosabatlarni yaxshilash maqsadida bir qancha takliflar bilan chiqdi. Bu takliflar zaminida moliyaviy ko'mak yotibdi. Lekin AQSH unchalik ham ko'p miqdordagi moliyaviy ko'mak berish niyatida emas. Bu narsa esa o'z navbatida Pokiston tomonining yanada jahllantirayotgani aniq. Asosan munosabatlarning sovuqlashishiga AQSHning uning hududida harbiy operatsiyalar olib borganligi bo'ldi. Ko'pgina tahlilchilar bu borada o'z fikrlarini bildirib o'tdilar. Ba'zi tahlilchilar bu harakatlar Pokistonning suvirenetitetiga tahdid deb baholashdi. Bunga ham AQSHning haqqi bor deb qarajak bir tarafdin to'g'ri bo'ladi. Chunki Tolibonlar va boshqa jangari guruhlarning asosiy dala lagerlari aynan Pokistonning Afg'oniston bilan chegaradosh hududlarida joylashgan bo'lib, bugunda kunda bu holat hech kimga sir emas.

Ekspertlarning fikrlariga ko'ra, Pokiston parlamentining beshdan bir qismini islom fundamentalistlari va mamlakat armiyasining yuqori mansabdorlari tashkil etadi. Aynan ular "Toliblar harakati"ni qo'llab – quvvatlamodalar¹. Bundan tashqari, Pokiston aholisining ko'pchilik qismi ham Toliblarga ko'mak bermoqda. Jamoatchilik fikri so'rovlari natijasiga ko'ra, AQShning terrorizmga qarshi jangga kirishini Pokistonliklarning 30%i qo'llab – quvvatlagan.

AQSH, NATO va Afg'oniston vakillari esa "Toliblar harakati"ning shtab – kvartirasi Pokistonning Kvetta shahrida joylashgan deb hisoblamoqdalar. Pokiston prezidentining qayd etishicha, jangarilar chegarani kesib o'tib harakat qilmoqda, ularning bazasi Afg'onistonda joylashgan ammo, "Toliblar harakati" Pokistondan qo'llab – quvvatlanmoqda².

¹Талибы и НАТО в афгано-пакистанском приграничье. // http://www.hs.uz/news/single_news.cfm?20502 - 23.08.2006

² Rubin B.R.. A Boder Affair // The Wall Street Journal. –2006. –Vol.51. –№.86. –P.23.

Pokiston tomonining o'zi esa bu bilan kurashishga bel bog'lagani yo'q. Aksincha, bundan o'zning ba'zi manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qilmoqda. Ya'ni Hindiston bilan mojarolarni jangari guruhlar qo'li bilan amalga oshirishni maqul ko'rmoqda. Shu kelishmovchiliklar janubiy yo'nalishning kelajagini bashorat qilishga qiyinchilik tug'dirmoqda.

AQSh bir qancha vaqt Pokiston – Afg'oniston munosabatlarida faol vositachi, biroq betaraf davlat sifatida rol o'ynab keldi. So'nggi vaqtlarda esa AQSh ma'muriyati Afg'oniston hududiga kirib kelayotgan jangarilarga nisbatan tegishli choralar ko'rishni Pokistondan talab qilmoqda.

Xususan, bu Pokistonga nisbatan nafaqat siyosiy diplomatik choralar, balki harbiy kuch xarakteridagi choralarni ko'rish to'g'risidagi ogohlantirishlarda o'z ifodasini topmoqda.

Afg'onistondan AQSH qo'shinlarining batamom olib chiqib ketilishi 2011-yil iyundagi Prezident Obamaning nutqida ham eslatib o'tdi. Aslida, 2012-yil iyunda AQSH va Afg'oniston o'rtasidagi strategik hamkorlik shartnomasi imzolanib, AQSHning 2014-yildan keyingi mavjudligini ta'minlaydi.

2012-yil 15-noyabrda Afg'oniston va AQSH o'rtasida Afg'onistonda 2014-yildan keyingi qancha qo'shin qolishi va qancha vaqt qolishi borasidagi masalalar AQSHning harbiy ishtiroki ikki tomonlama kelishuvlar borasida tashabbuslar boshlanib ketdi.

68,000 qo'shinni olib chiqib ketish masalasi juda katta bo'lib qolmoqda. General Jon Allen 60,000 harbiy xismatchini 2013-yil kuziga qadar saqlab qolishni maqsad qilmoqda.

2012-yil mart oyida quyidagi tanlovlar ko'rib chiqildi.:

1. Vitse president Joy Baydon tomonidan qo'shinlarni tezkorlikda olib chiqib ketish masalasi batafsil bayon qilinib, 2013-yil oxiriga qadar, ehtimol, 20,000 qo'shin olib chiqib ketilishi aytili.

2. Bosqichma-bosqich qo'shinlarni kamaytirib borish rejasi 2012-yil oxiriga qadar 10,000 qo'shin olib chiqib ketilishi aytilgan edi. Bu raqamga

qo'shimcha ravishda 2013-yil iyunga qadar 38,000 va 48,000 o'rtasidagi qo'shinni qoldirgan holda, 20,000 qo'shin olib chiqib ketiladi.

XULOSA

Afg'on muamosini bartaraf etishda juda ko'p harbiy kuchlar, mablag'lar jalb qilinmoqda. Ammo ko'p hollarda bu kabi kuchlar o'z samarasini unchalik darajada ko'rsata olmayapti. Mavzu o'rgangan holda shunday xulosalarga kelindi:

Birinchiidan, mamlakatdagi notinchliklarni harbiy yo'l bilan hal qilish ancha mushkul vazifa ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Demak, bu vazifani, ya'ni mamlakatda tinchlik va barqororlikni iqtisodiy islohotlar yo'li bilan o'zgartirish bugungi kunning aniq vazifasidir;

Ikkinchiidan, bu mamlakat ko'p yillardan beri fuqarolar urushi girdobida qolib ketdi va bu holat xalq ma'naviyatiga o'zining katta ta'sirini ko'rsatmasdan qolmadi. Va aynan shuning uchun asosiy vazifalardan biri bu – xalqning tinchlikka bo'lgan ishonchini qayta uyg'otish va urushsiz taraqqiyot yo'liga olib kirish lozim;

Uchinchiidan, qariyb 12 yildirki xaqaro kaolitsion kuchlar mazkur mamlakatda o'z missiyalarini bajarib kelmoqda. Ularning chiqib ketish xabari mamlakatdagi vaziyatni yanada qiyinlashtirmoqda deb ayta olamiz. Chunki, ular oxirgi vaqtlarda, 2014-yil oxiriga qadar o'z vazifalarini bajarishga yana bir qadar harakat qilishmoqda. Afsuski bu holat gohida tinch aholining qiynalishiga, ko'pgina qurbonliklar berishiga olib kelmoqdaki, bundan tinch aholining norozilik kayfiyati kuchayishi tabiiy hol. Bundan tashqari, xalqaro tinchlikparvar kuchlarning o'zida ham talofatlar yetmoqda. Buning oldini olish uchun kaolitsion kuchlar o'zlarining bu kabi harbiy harakatlarini to'xtatishlari lozim va imkoni boricha boshqa tinch yo'llardan foydalanishlari kerak bo'ladi.

To'rtinchiidan, Pokiston tomonidan Tolibonlar harakatining qo'llab – quvvatlanishi kabi omillar ushbu muammolarning yanada kuchayishiga olib kelmoqda. Mazkur mamlakat Afg'oniston chegarasi yaqinidagi Tolibon lagerlarining mavjudligiga “barmoq orasidan” qaramoqda. Ba'zi asoslarga tayanadigan bo'lsak, bu mamlakat mazkur harakatdan o'zining bir qator manfaatlarini bajarishda foydanmoqda. Albatta bu harakatlar mintaqa xavfsizligi uchun katta ziyon ko'rsatmoqda. Shu sababli ham xalqaro kaolitsion kuchlarning ba'zi xatolari ko'zga yaqqol tashlanadi. Aslida bu kuchlar afg'onistonda, ya'ni

terroristik kuchlar o'z harakatlari uchun "poligon" qilib olgan hududda kurash olib borishlari emas, shu tinchlik uchun xavfli kuchlar joylashgan nuqtalarni yo'q qilishlari lozim edi. Ammo AQSH boshchiligidagi mazkur kaolitsiya Pokiston bilan a'loqalarini yomonlashtirmaslik maqsadida va yana boshqa qator masalalar bo'yicha bu ishlarni to'la amalga oshirmayaptilar.

Oltinchidan, mamlakatdagi etnik ayirmachiliklarga barham berishga bor imkon bilan harakat qilinishi zarur. Bu borada ko'pgina loqaydliklarga yo'l qo'yilmoqda.

Bundan tashqari, Afg'onistonning iqtisodiy rivoji uchun mamlakatdagi korrupsiyaga barham berilishi zarur. Chunki hozirda mazkur mamlakatda korrupsiya shu qadar rivojlanganki, xorijiy davlatlar berayotgan moliyaviy ko'maklar hukumat korrupsiyasi sababli va etnik taqsimlanishdagi kamchiliklar tufayli behuda ketmoqda.

O'zbekiston Afg'onistonga bevosita qo'shni davlat bo'lganligi sababli, mazkur davlatdagi tinch va barqaror rivojlanishdan birinchi o'rindagi manfaatdor davlatdir. Shunday qilib O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy, information, ekologik, harbiy va davlatimizning va jamiyatimizning hayotiy boshqa jihatlarni qamrab olgan milliy xavfsizlik bo'yicha manfaatlari xavfsizlikka tahdid, jumladan xalqaro terrorizmga tahdidiga tizimli munosabat ishlab chiqishni talab etmoqda.

Xalqaro kaolitsiya kuchlari bu mamlakatni tark etgandan so'ng uning kelajagi qanday bo'lishi to'g'risida aniq fikrlar yo'q. Garchi tomonlar kelishuvga tomon yuz burgan bo'lsalarda, ertaga yana oldingi voqealar takrorlanmasligiga hech kim kafolat bera olmaydi. Shu sababli ham mamlakatimiz bu kabi hollarga tayyor turishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI****1. Rahbariy adabiyotlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

- 1.1. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T.1. – T.: O‘zbekiston, 1996. –364 b.
- 1.2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. –T.2. –T.: O‘zbekiston, 1996. –380 b.
- 1.3. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. –T.6. –T.: O‘zbekiston, 1998. –429 b.
- 1.4. Karimov I.A. O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. –T.7. –T.: O‘zbekiston, 1999. –376 b.
- 1.5. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. –T.8. –T.: O‘zbekiston, 2000. –528 b.
- 1.6. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. –T.9. –T.: O‘zbekiston, 2001. –432 b.
- 1.7. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. –T.10. –T.: O‘zbekiston, 2002. –432 b.
- 1.8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma’rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. –T.11. – T.: O‘zbekiston, 2003. – 320 b.
- 1.9. Karimov I.A. Tinchlik va xafsizligimiz o‘z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat’iy irodamizga bog‘liq. –T.12 –T.: O‘zbekiston, 2004. –400 b.
- 1.10. Karimov I.A. O‘zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo‘lmaydi. – T.13. –T.: O‘zbekiston, 2005. –264 b.
- 1.11. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlishtirish, islohatlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish –

- barcha ishlarimizning mezonini va maqsadidir. –T.15. –T.: O‘zbekiston, 2005. –320 b.
- 1.12. Karimov I.A. Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta’minlash – bizning oliy maqsadimiz. –T.17. –T.: O‘zbekiston, 2005. –264 b.
- 1.13. Karimov I.A. O‘zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. –T.: O‘zbekiston, 2005. –144.b.
- 1.14. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.:O‘zbekiston, 1997. –326.b.
- 1.15. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. –T.:Ma’naviyat, 2008. –176 b.
- 1.16. Karimov I.A. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisida so‘zlangan nutq. // «Xalq so‘zi». 2010 yil 22 sentabr.
- 1.17. Mamlakatimizda demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston RespublikasitOliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisi dagi ma’razusi. // Xalq so‘zi, 2010 yil 13 noyabr.
- 1.18. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omili. Prezident Islom Karimovning o‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi.// Xalq so‘zi, 2010 yil 8 dekabr.

2. Me’yoriy-huquqiy hujjatlar

- 2.19. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O‘zbekiston, 2008. –40 b.
- 2.20. O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida. –T.:O‘zbekiston, 1996.

3. Kitoblar, o'quv qo'llanmalar, darslik va monografiyalar

- 3.21. Алимов Р. Центральная Азия: общность интересов. –Т.:Шарқ, 2005. – 456 с.
- 3.22. Алимов Р., Арифханов Ш. и др. Центральная Азия: формирование новой архитектуры безопасности. –Т.:Шарқ, 2002. –314 с.
- 3.23. Акмалов Ш. Национальная стратегия Республики Узбекистан в вопросах мирного урегулирования афганского конфликта (1991-2009 гг.). –Т.: Тошкент ислом университети, 2009. –247 с.
- 3.24. Ахмедов Э., Сайдаминова З. Ўзбекистон Республикаси. –Т.: Ўзбекистон, 1995. –323 б.
- 3.25. Васькин К., Касымов А. Основные направления внешней политики Республики Узбекистан. –Т.: Ўзбекистан, 1994. –154 с.
- 3.26. Белокреницкий В., Москаленко В., Шаумян Т. Южная Азия в мировой политике. – М.: Наука, 2003. –379 с.
- 3.27. Ганковский Ю. Пакистан: проблемы политики и экономики. –М., 1978. –324 с.
- 3.28. Дугин А. Геополитика Индо-Пакистанского конфликта. –М., 2002. – 287 с.
- 3.29. Бжезинский З. Великая шахматная доска. –М.,Меж.отношение, 1999. – 280 с.
- 3.30. Босин Ю.В. Национальные проблемы современного Афганистана. –М.: ИВ РАН, 1992. –252 с.
- 3.31. Королев В. Экономическая история Синда во второй половине XIX-XX-вв. –М., 1999. –324 с.
- 3.32. Князев А.А. Афганский конфликт и радикальный ислам в Центральной Азии: Сб. Док.и материалов. –Бишкек: Илим, 2001. –285 с.
- 3.33. Ляховский А.А., Забродин В.М. Тайны Афганской войны –М.: Плената, 1991. –249 с.
- 3.34. Масутов Т. Афганские дневники. –Алматы: РОНД, 2004. –186 с.

- 3.35. Материалы Ташкентской встречи группы «6+2» по Афганистану под эгидой ООН (19-20 июля 1999г). –Т.: Шарк, 1999. –172 с.
- 3.36. Москаленко В. Внешняя политика Пакистан. –М., 1984. –286 с.
- 3.37. Мукумджонова Р. Пакистон и империалистические державы 70-е начало 80-х годов. –М., 1984. –278 с.
- 3.38. Мусульманские страны у границ СНГ (Афганистан, Пакистан, Иран и Турция-современное состояние, история и перспективы). –М., 2002. –387 с.
- 3.39. Нартов Н. Геополитика. – М.: ЮНИТИДАНА, 2002. –307 с.
- 3.40. Паничкин Ю. Политическая борьба в северо-западной пограничной провинции колониальной Индии и присоединение провинции к Пакистану (1920-1947-гг). –М., 2000. –294 с.
- 3.41. Пластун В. Афганистан: симптом или синдром?. –М., 2001. –267 с.
- 3.42. Раҳмонов Д.Н. Миллий муносабатлар ва уларнинг сиёсий-худудий бошқарилиши (ҳозирги жаҳон амалиётидан). –Т.: Фан, 2000. –261 б.
- 3.43. Сборник. Афганистан – Талибан и мировая политика. – М.: ИВ РАН, 1996. –308 с.
- 3.44. Сикоев Р.Р. Пресса афганской эмиграции. –М.: ИВ РАН, 1999. –284 с.
- 3.45. Стивен Таннер. Афганистан история войн – М.: Эксмо, 2004. –241 с.
- 3.46. Темирханов Л. Восточные пуштуны. Основные проблемы новой истории. –М.: Наука, 1997. –319 с.
- 3.47. Троценко Г. Национальный вопрос в Синде. –М., 1990. –261 с.
- 3.48. Туляганова Н.У. Афганский фактор в современных международных отношениях в Центральной Азии. –Т.:Шарк, 2004. –272 с.
- 3.49. Хашимбеков Х. Узбеки Северного Афганистана. –М.:РАН Институт востоковедения, 1994. –254 с.

4. Avtoreferatlar

- 4.50 Акмалов Ш.И. Проблема афганского урегулирования в современных Пакистано-Иранских отношениях. –Т.:ТашГИВ, 2002. –21 с.
- 4.51 Казакханов Х.А. Международно-правовые аспекты борьбы с финансированием терроризма. –Т.:УМЭД, 2008. –25 с.
- 4.52 Ибрагимова С.Ш. Международный терроризм как фактор угрозы безопасности Республики Узбекистан. –Т.:ТашГИВ, 2005. –22 с.
- 4.53 Васькин А.И. Пакистано-Китайские отношения. –Т.:ТашГИВ, 1997. –24 с.

5. Davriy nashrlar

- 5.54. Арунова М. Трудный путь к миру // Азия и Африка сегодня. –2002. – №11. –С.15-18.
- 5.55. Ганковский Ю.В. Ибрагим-бек Локаи (1889-1992).// Азия и Африка сегодня. –2004. –№4. –С.60-63.
- 5.56. Джонсон Г. Сотрудничество по безопасности в Центральной Азии после события 11 сентября. // Материалы международной конференции. –Т.: Шарк, 2002. –С.30-39.
- 5.57. Ислам и политический культура общества. // Азия и Африка сегодня. – М. –2003. –№2. –С.44-46.
- 5.58. Каримов Р. Конфликтный потенциал в треугольнике Узбекистан-Афганистан—Таджикистан // Центральная Азия и Кавказ. –2006. –№4. –С.61-66.
- 5.59. Коргун В. Афганистан на порге мирного этапа // Центральная Азия и Кавкз. –2006. –№1. –С.60-62.
- 5.60. Коргун В. Современный Афганистан. Демократия XIV века // Россия в глобальной политике. –2005. –№6. –С.54-56.

- 5.61. Князев А. Афганистан как источник религиозного экстремизма и терроризма // Центральная Азия и Кавказ. –2000. –№5. С. 88-91.
- 5.62. Лалетин Ю. Новое политическое объединение в Афганистане: первые шаги // Азия и Африка сегодня. –2008. –№1. –С.35-43.
- 5.63. Лаумулин М. Центральная Азия и ситуация в Афганистане // Центральная Азия и Кавказ. –2004. –№7. –С.45-50.
- 5.64. Мукимджанова Р. Новые ориентиры в Центральной Азии. // Азия и Африка сегодня. – 1997. –№8. –С.28-31.
- 5.65. Некрасов В. Кабульские встречи // Азия и Африка сегодня. –2002. – №8. –С.20-21.
- 5.66. Нурша А. Особенности политики Пакистана в Центральной Азии. // Analytic. –2006. –№6. –С.17-20.
- 5.67. Рашидов Р. К характеристике политических партий в современном Афганистане // Общественная наука в Узбекистане. –Т. –2009. –№2. – С.76-81.
- 5.68. Сапай Х. Только сильный народ сохранит Афганистан // Центральная Азия и Кавказ. –2008. –№7. –С.78-80.
- 5.69. Сикоев Р. Какой будет конституция нового Афганистана? // Азия и Африка сегодня. –2003. –№8(553). –С.19-21.
- 5.70. Супрун В., Зеленин Д. Афганистан обрел президента // Россия и мусульманский мир. –2007. –№8. –С.30-33.
- 5.71. Толипов Ф.Ф. Испытание геополитики терроризмом и антитерроризмом // Россия и Мусульманский мир. –2008. –№8 (122). – С.36-40.
- 5.72. Туронок С., Эбади Х. Афганский конфликт. Социо-культурное измерение // Центральная Азия и Кавказ. –2007. –№10. –С.95-101.
- 5.73. Фадеева И. Ислам и политический конфликт // Россия и Мусульманский мир. –2008. –№9. –С.29-33.

6. Internet manbalari

- 6.74. <http://www.grandars.ru/college/sociologiya/upravlenie-politicheskim-konfliktom.html>
- 6.75. http://en.wikipedia.org/wiki/Central_Intelligence_Agency
- 6.76. <http://en.wikipedia.org/wiki/Puritan>
- 6.77. <http://www.infoplease.com/encyclopedia/world/afghanistan-history.html>
- 6.78. <http://www.usnews.com/debate-club/should-the-us-withdraw-from-afghanistan-sooner>
- 6.79. <http://www.afghanistanstudygroup.org/2012/01/04/withdraw-troops-from-afghanistan-but-stay-engaged/>

ILOVALAR

1-ilova:

FIGURE 1.2
Other Foreign Troops Deployed To Afghanistan²

Month	Number	Month	Number	Month	Number
February 2002	5,000	October	20,000	October	36,230
March	5,000	November	21,000	December	38,370
April	5,000	December	21,000	February 2010	38,710
May	4,500	January 2007	21,460	March	38,890
June	5,000	March	21,750	April	40,139
September	4,700	April	21,750	June	41,070
April 2003	5,000	May	24,000	July	41,315
September	5,000	July	24,250	August	41,389
April 2004	5,500	September	26,043	October	40,432
June	6,000	October	30,177	November	40,930
August	6,500	December	26,703	December	41,730
September	8,000	February 2008	28,250	February 2011	41,893
October	10,000	April	28,000	March	42,203
November	9,400	June	29,350	May	42,400
December	8,500	September	29,810	June	42,381
January 2005	9,000	October	30,100	August	40,697
February	8,000	November	31,150	September	40,670
June	8,000	December	31,400	October	40,638
August	10,500	January 2009	31,880	December	40,313
December	9,000	February	31,520	January 2012	40,386
May 2006	9,000	March	32,140	April	38,961
June	9,700	April	32,175	May	39,469
August	15,000	June	32,280		
September	18,000	July	34,550		

FIGURE 1.3

2-ilova:

FIGURE 1.4
Size of Afghan Security Forces on Duty, 2003-2012⁴

Month	Ministry of Defense Forces	Ministry of Interior Forces	Total Afghan Security Forces
End 2003	6,000	0	6,000
End 2004	24,000	33,000	57,000
End 2005	26,000	40,000	66,000
End 2006	36,000	49,700	86,000
End 2007	50,000	75,000	125,000
April 2008	57,800	79,910	137,710
October 2008	68,000	79,910	147,910
March 2009	82,780	79,910	162,690
July 2009	91,900	81,020	172,920
November 2009	95,000	95,000	190,000
December 2009	100,131	94,958	195,089
March 2010	113,000	102,000	215,000
April/May 2010	119,388	104,459	223,847
August 2010	134,000	109,000	243,000
September 2010	138,164	120,504	258,668
October 2010	144,638	116,367*	261,005
December 2010	149,533	116,856	266,389
Jan/Feb 2011	152,000	118,800	270,800
April 2011	164,003	122,000	286,003
May 2011	168,037	128,622	296,659
August 2011	169,076	134,865	303,941
September 2011	170,781	136,122	306,903
October 2011	173,150	139,070	312,220
December 2011	179,610	143,800	323,410
January 2012	184,437	145,577	330,014
February 2012	187,874	148,932	336,806
March 2012	194,466	149,642	344,108

Both ANA and ANP met manning goals set for October 2011. The goal for ANA by November 2012 is 195,000 soldiers and the goal for ANP is 157,000 security forces by the same time. *revised reporting